

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

NIGMATOV I.

**TERRORIZMNING OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASHDAGI
XAVFSIZLIK SIYOSATIDA O'ZBEKISTONNING TUTGAN O'RNI**

Toshkent 2016

UDK 323.28(575.1)

I. Nigmatov. Terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashdagi xavfsizlik siyosatida O‘zbekistonning tutgan o‘rni. – Toshkent: ToshDTU, 2016. – 81 b.

Bugungi kunda yer yuzida insoniyat taqdiriga va kelajak istiqboliga jiddiy xavf solayotgan, xuruj qilayotgan terrorizm o‘zining manfur maqsadlarini jahon ommasiga tobora yaqqol ko‘rsatib, yangi-yangi ko‘rinishlar kasb etmoqda. Zero, dunyoda necha minglab begunoh kishilarning hayotdan ko‘z yumishiga sabab bo‘layotgan bu unsurning ta’sir doirasi mintaqamiz hududini ham chetlab o‘tmaganligini o‘tmish tariximiz sifatida saboqli talqin etish va bunday holatlarning oldini olish borasida O‘zbekistonning ham tashqi, ham ichki ijtimoiy-siyosiy tashabbuskorligini ilmiy asosda aniqlash muhim masalalardan biridir.

Mazkur monografiyada terrorizmning mohiyatan rivojlanish jihatlari tahlil qilinib, uning oldini olish va unga qarshi kurashda dunyo hamjamiyatida O‘zbekistonning tutgan o‘rni xususida fikr yuritilgan.

Monografiya professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, bakalavriat va magistratura talabalari hamda ta’lim tarbiya bilan shug‘ullanuvchi barcha mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

Monografiya Toshkent davlat texnika universiteti kengashining qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Mas’ul muharrir: tarix fanlari doktori, professor SH. Voxidov

Taqrizchilar: pedagogika fanlari doktori, professor U. Maxkamov

filologiya fanlari nomzodi, dotsent E. Xudoyberdiyev

psixologiya fanlari nomzodi, dotsent K. Farfieva

MUNDARIJA

Muqaddima	4
I bob.Terrorizm va aholi muhofazasi	
1.1.Terrorizm va terrorchilik harakatlari haqida tushuncha.....	9
1.2.Terrorizmning iqtisodiyot va aholi uchun xavfli xususiyatlari	15
II bob. Xalqaro terrorizmga qarshi siyosiy, g‘oyaviy va mafkuraviy kurashning ijtimoiy-siyosiy ildizlari	
2.1.Xalqaro terrorizm va uning salbiy illatlari.....	19
2.2.Islom niqobidagi terrorizm va uning asosiy yo‘nalishlari.....	29
III bob. Terrorizmga qarshi kurashning g‘oyaviy tamoyillari	
3.1.Milliy qadriyatlarga xos bag‘rikenglik masalalari.....	36
3.2.Murosasozlik va xalqlararo hamjihatlik g‘oyalarining asoslari.....	42
IV bob. O‘zbekistonda terrorizmga qarshi kurash masalalari	
4.1.Terrorizmga qarshi kurashda O‘zbekistonning o‘rni.....	47
4.2.O‘zbekistonning BMT norkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik munosabatlari.....	61
4.3. Mintaqada terrorizmning oldini olishda muhim qadam	64
4.4.Terrorizmga qarshi kurashda ma’naviyat - bosh me’zon.....	67
Xulosa.....	74
Foydalanilgan adabiyotlar.....	77

MUQADDIMA

“Siyosatimizning asl mohiyati shuki, aholi xavfsizligini ta’minlash, ularni turli xil ofatlardan va favqulodda vaziyatlardan himoya qilishdir”.

Islom Karimov

XX asrda zo‘ravonlik, agressiya inson borlig‘ining barcha jabhalariga kirib bordi, terrorizm esa ularning o‘ziga xos namoyon bo‘lishidir. Zero sivilizatsiyaning nozik qobig‘i ostida vayronkorlik yashiringan bo‘lib, u har qachon o‘zini namoyon etishi mumkin. XX asrda sodir bo‘lgan ikkita jahon urushi buning yaqqol misoli bo‘lib, oqibatda sivilizatsiyani vayron qilib, uni halokat yoqasiga olib keldi. Odatda inson faoliyatida namoyon bo‘ladigan har qanday g‘ayriinsoniy xatti-harakatlar jamiyatni parokandalikka olib keladi. Boz ustiga global muammo bo‘lmish terrorizm fojiasi qatoriga jahon moliyaviy inqirozi ham qo‘sildi. Inqiroz ishsizlik, xalq orasida g‘alayonlar va parokandalikning avj olishiga sabab bo‘lishi bilan bir qatorda anarxiyaning yuzaga kelishi uchun ham zamin yaratadi. Ekstremistik tashkilotlar esa ayni shu vaziyatdan unumli foydalanishi mumkin.

Terrorizm tarixiy jihatdan dastlabki davrlardanoq o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalari, qo‘llagan kurash vositalari, g‘oyaviy da’volari bilan insoniyat uchun katta ijtimoiy xavfga aylanish imkoniyatiga ega bo‘lib, ma’lum tarixiy davrlarda bunday imkoniyat voqelikka aylandi. Lekin XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, terrorizm butunlay yangi sifat darajasini kasb etdi hamda o‘zida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy holatni mujassamlashtirdi. «...Terrorizmning tajovuzidan o‘zini holi his qiladigan birorta qit’a yoki davlatning o‘zi yo‘q - deb ta’kidlaydi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov. - Xuddi vabo singari yer yuzining ko‘plab mamlakatlariga yoyilib borayotgan bu balo-qazo yertaga kimni nishonga olishini ham oldindan aytish qiyin»¹.

¹ Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko’tarilish sari 18-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.

Adabiy manbalar guvohlik berishicha, Terrorizm vujudga kelgan dastlabki davrlarda u muayyan bir shaxs, guruh yoki siyosatchi tomonidan ijtimoiy tuzumga qarshi ma'lum bir mamlakat chegarasida amalga oshirilgan. Hozirgi davrda bu falokat ko'zlagan maqsadini amalga oshirishda qo'llayotgan vositalar intellektual va texnik jihatdan eng zamonaviy bo'lib, ko'لامи jihatidan xalqaro miqyosda to'siq bilmas global muammoga aylanib bormoqda. Shuningdek, bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi sog'lom va bunyodkor g'oyaga jiddiy ehtiyoj sezmoqda. Bu xaqda I.Karimov shunday yozgan edi: "Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab etish nihoyatda qiyin"¹.

Terrorizmga qarshi kurash masalalarini tahlil qilishda bag'rikenglikning Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiy fikri namoyandalari Ibn Sino, Burhoniddin Marg'inoniy va Jaloliddin Rumi qarashlaridagi aqidaviy va huquqiy masalalari, Forobiy, Byeruniy, Ulug'bek, Bobir asarlaridagi xalqlararo hamjihatlik g'oyalari, Abdurahmon Jomiy va Alishyer Navoilarning dinlararo murosasozlikning ijtimoiy-ma'naviy masalalari aks etgan falsafiy qarashlari muhim ilmiy asos bo'lishi mumkin. Markaziy Osiyo mutasavviflari ma'naviy-axloqiy qarashlaridagi dinlararo murosasozlik, bag'rikenglik g'oyalarining ekstremizm, aqidaparastlikka qarshi mafkuraviy kurashdagi ma'naviy ahamiyatini izchil va yaxlit tadqiq etish taqazo etiladi. Vaholanki, Terrorizmning ijtimoiy-tarixiy va g'oyaviy ildizlarini aniqlamay turib, unga qarshi samarali kurash olib borish murakkab, deb yozadi tadqiqotchi N.Safarova va bu borada o'zining "Terrorizm" asarida alohida o'rganilishi lozim bo'lgan 9 ta muammoni ilmiy mavzuga xos yo'nalishlar sifatida juda o'rinli ta'kidlab o'tgan²:

Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2004. – B.265.

¹ Karimov I.A. yuksak manaviyat - engilmas kuch. – Toshkent: "Manaviyat" 2010.-B.113.

² Safarova N. – "Terrorizm" (tarixiy-falsafiy tahlil). – Toshkent: Noshir- 2009. 216 b.2009. – B.8.

Birinchidan, mamlakatimiz falsafiy adabiyotida terror va Terrorizm mohiyati, vujudga kelishining ijtimoiy-tarixiy va g‘oyaviy ildizlarining tahliliga oid umumlashma tadqiqotlar etarli darajada mavjud emas.

Ikkinchidan, Terrorizmning tarixiy shakllari bilan hozirgi davrdagi ko‘rinishlari o‘rtasidagi mohiyatan umumiylilik va farqni qiyosiy o‘rganish ko‘p jihatdan ana shu masalaning chuqur tarixiy-falsafiy tahlili bilan bog‘liq metodologiya bo‘lib, u Terrorizmga qarshi kurashda tarixiy-falsafiy tamoyillar zarurligini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, Terrorizmni ilmiy o‘rganish uzoq davrlar (totalitar tuzumda) taqiqlanib kelindi. Sobiq Ittifoq davrida faqat G‘arb mamlakatlardagi Terrorizm tadqiq etilib, ularda mafkuraviy jihatdan bir yoqlama yondashuv quzatiladi. Bu muammo tarixini faqat siyosiy sababdan emas, balki ilmiy sababdan ham o‘rganish dolzarb. Zero Terrorizm siyosiy rivojlanishgagina emas, balki qo‘rqitish, vahima yordamida jamiyat ruhiyatiga ham chuqur ta’sir etib kelgan hodisa sifatida o‘rganilishga muhtoj.

To‘rtinchidan, terror turli tarixiy davrlarda o‘ziga xos xilma-xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib, dunyo tarixida ko‘plab analoglarga ega. Bugungi kunga kelib esa u yangi-yangi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda. Binobarin, minglab kishilarning hayotdan ko‘z yumishiga sabab bo‘layotgan bu unsurning ta’sir etish darajasi va tasnifini ilmiy tahlillar asosida aniqlash muhim falsafiy-nazariy masalalardan biri.

Beshinchidan, Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan: "G‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat" tamoyili Terrorizmga qarshi ma’naviy va mafkuraviy kurashning o‘ziga xos shakl hamda vositalarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bunday chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalda qo‘llashda Prezident asarlarida ko‘rsatilgan metodologik, nazariy va amaliy xulosalarning ahamiyatini yoritish tadqiq qilinayotgan muammoning muhim tomonlaridan biridir.

Oltinchidan, inson ongi va qalbi uchun kurash asosiy masalaga aylangan bir vaqtida tasavvuf ahlining surat emas, siyrat, ya’ni mohiyatni anglashga intilish tajribasini o‘rganish ijtimoiy hayotdagi ko‘r-ko‘rona taqlid, g‘aflat kabi illatlarga, mutaassiblik, ekstremistik va aqidaparastlik g‘oyalariga qarshi kurashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Ettinchidan, ma'lumki, xalqaro Terrorizm mohiyati tahliliga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlarda islam dini niqobi ostida sodir bo'layotgan terrorchilik harakati ishtirokchilari "islomchilar", harakatning o'zi esa haqiqiy voqelikka va mantiqiy fikrga zid holda "islom terrorchiligi" atamasi bilan nomlanmoqda.

Shuning uchun etarlicha ilmiy adabiyotlarga suyangan holda ushbu masalaga aniqlik kiritish va islam niqobidagi terrorchilikning g'oyaviy hamda mafkuraviy mohiyatini falsafiy tahlil qilish ushbu muammoning muhim va dolzarb nazariy masalalaridan biridir.

Sakkizinchidan, respublikamiz falsafa fanida Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida diniy bag'rikenglik va xalqlararo hamjihatlik g'oyalari hamda amaliyoti diniy fundamentalizm va ekstremizm bilan hech qachon murosa qilmaganligi, balki uni yot hamda zararli g'oya sifatida rad etganligi masalasi hanuzgacha (etarli darajada) falsafiy-ilmiy jihatdan tahlil qilinmagan. Shu nuqtai nazardan ushbu masalani Qur'oni karim, hadislar, musulmon huquqi (fikh), mutafakkirlar va mutasavviflar asarlari asosida teran o'rganish zarurati kelib chiqadi.

To'qqizinchidan, Markaziy Osiyo mutasavviflari ma'naviy merosi, ularning tinchliksevarlik, sulhparvarlik, hammaga, shu jumladan boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilarga nisbatan ham bag'rikeng bo'lish borasidagi qarashlari mutaassiblik, fanatizm va fundamentalizmga qarshi kurashda ma'naviy qurol bo'lib xizmat qilishi mumkinligini keng va asosli tahlil etish zarurligi mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.¹

Insoniyat yangi yuz yillikka – XXI asrga qadam bosdi, lekin shuni ta'kidlash lozimki, o'tgan asrda bashariyat juda ko'p quvonchli hamda tahlikali, dahshatli voqealarni boshidan kechirdi. Qonli to'qnashuvlarni, ikkita jahon urushini, sovuq urush vahimasi va qatag'onlarni boshidan kechirgan insoniyat kelajak sari talpinib, har qanday qiyinchiliklarni engib taraqqiyotga talpinmoqda.

Afsuski, insoniyatning hayot kechirishi uchun undagi imkoniyatlarning borgan sari cheklanib borayotganligi ayon bo'lmoqda. Aholini toza ichimlik suviga, toza havoga, oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyojini qondirish bilan bir vaqtda xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari tobora qiyinlashib bormoqda. Ular qatorida afsuslar bo'lsinki, bugungi

¹ Qarang: Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 211 b.

kunda yer yuzida, insoniyat taqdiriga va kelajak istiqboliga jiddiy xavf solayotgan, xuruj qilayotgan xalqaro Terrorizm o‘zining manfur maqsadlarini jahon ommasiga tobora yaqqol ko‘rsatmoqda. Xalqaro Terrorizm huruji oqibatida yuz minglab kishilarning yostug‘i qurib, moddiy boyliklar vayron qilinmoqda. Hozirda uning xurujidan hech bir davlat, hatto hech kim mutlaqo muhofazada emas. Har daqiqada insoniyat bunday ijtimoiy ofatning qurbaniga aylanishi mumkin. Shu sababdan BMTning favqulodda vaziyatlar tasnifiga qo‘srimcha qilib, aynan ijtimoiy-siyosiy tavsifdagi favqulodda vaziyatlarning kiritilishi bejiz emas. Chunki bunday tusdagi xavf-xatarning darajasi yildan yilga ortib bormoqda. Shuning uchun har bir inson o‘z yurti, millati, muqaddas zhamini va oilasi tinchligi, xotirjamligi uchun kurashmog‘i lozim. Bugungi kundagi vaziyatga baho byerib, I.Karimov o‘z asarlarida shunday fikrlarni bayon qilganlar:

“Bugungi kunda bizni o‘rab turgan dunyo qanchalik tez o‘zgarib borayotgani, yaqin va uzoq atrofimizda turli mojarov va qon to‘kishlar davom etayotgani, Terrorizm, ekstremizm va narkotrafik xavfi ortib, moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va uning oqibatlari yanada chuqurlashib borayotgani haqida ortiqcha gapirishning hojati yo‘q, deb o‘ylayman. Albatta, bularning barchasi har birimizni tashvishga solmasdan qo‘ymaydi va bizdan jahonda yuzaga kelayotgan vaziyatni syergaklik bilan baholashni talab qiladi”¹.

Mazkur monografiyada Terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashda O‘zbekistonning munosib o‘mini tahlil qilish bilan birga, Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan: "G‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat" tamoyilining Terrorizmga qarshi ma’naviy va mafkuraviy kurashda muhim ahamiyat kasb etishligi va bu borada ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni amalda qo‘llashda Prezident asarlarida ko‘rsatilgan metodologik, nazariy va amaliy xulosalarning ahamiyatini yoritishga e’tibor qaratildi.

¹ Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.– 15 b.

I BOB. TERRORIZM VA AHOLI MUHOFAZASI

1.1.Terrorizm va terrorchilik harakatlari haqida tushuncha

Terrorizm lotincha "terror"-qo'rquv, dahshat so'zidan olingan bo'lib, siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'ligiga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy boyliklarning yo'q qilinishi xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitish va ijtimoiy siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan¹.

Terrorizmning ikki turi mavjud:

- A) yakka tartibdagi (individual terror);
- B) uyushgan guruhli.

Individual terror. Tarixdan ma'lumki, davlat siyosatini saklash yoki o'zgartirish uchun ma'lum bir shaxs yoki dushman jismoniy yo'q qilingan. Ana shunday zo'ravonlik va kuch ishlatish jarayonida individual terror namoyon bo'ladi. Demak, siyosiy kurashda kuchli siyosiy opponent yoki raqibni yo'q qilishning boshqa vositasi topilmaganda, individual terrordan qurol sifatida foydalanilgan. Uni ikkiga ajratish mumkin:

Birinchisi, sulolaviy nizolar negizidagi terror - ma'lum bir maslakdosh kishilar, ya'ni guruh rahnamoligida rejalahtirilib amalga oshiriladi. Mirzo Ulug'bekka nisbatan uyushtirilgan suiqasd buning yaqqol misoli. Buyuk hukmdor, donishmand, mutafakkir Mirzo Ulug'bek Vataniga qirq yil xizmat qildi, o'z yurtini ravnaq toptirdi hamda jahon fanini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi. "Ijtimoiy to'qnashuvlar sababli johil fitnachilar rahnamoligida Abdullatif saroy to'ntarishini amalga oshirdi va otasining huzuriga yollanma qotilni jo'natdi".

Ikkinchisi, nomaqbul hukmdor, davlat, jamoat va fan arboblarini yo'q qilishga qaratilgan terror. Jordano Bruno, Pavel I, Aleksandr II, Stolipin va boshqalar individual terror qurbanini bo'lishgan. Bu shaxslar

¹ Nigmatov I., Tojiev M. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. Darslik. – Toshkent: "Iqtisod-moliya". 2011, B. 140- 141.

ma'lum bir faoliyatları tufayli jamiyat uchun nomaqbul kishiga aylanishgan va ba'zi bir kuchlar uchun ularni jiemoniy yo'q qilish qulay bo'lган. Jordano Bruno ijtimoiy to'qnashuvlar sababli o'ldirilgan. Pavel I ning shafqatsizligiga chek qo'yish maqsadida unga nisbatan terror uyushtirilgan. Aleksandr II va Stolipin islohotlari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga ulkan hissa qo'shganligi xususida tarix guvohlik byeradi. Ularning reformatorlik faoliyatini jamiyat a'zolari bir tusda qabul qilishmadi va mazkur faoliyatni to'xtatish maqsadida bu shaxslarga nisbatan terror uyushtirildi. Aleksandr II ga nisbatan etti marta suiqasd uyushtirilgan bo'lib, oxirisida o'ldirildi.

Terror asta-sekin spiralsimon harakat qilib, keng ommaga o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydi va natijada individual terror ommaviy terrorga aylanadi. Terror faqat ommaga qarshi qaratilganligi yoki muayyan bir ommaning boshqalarga qarshi qaratilganligi uchungina ommaviy tus olmaydi. Zo'rlikka qarshi zo'rlik ishlatilganda terror haqiqiy ommaviy tus olishi mumkin. Bunda terror ommaning keng qatlamlarini o'z girdobiga oladi. Ommaviy terrorni quyidagi ko'rinishlarga ajratish mumkin:

Birinchisi, hokimiyat boshqaruv quroli sifatida - ma'lum bir tarixiy davrlarda xalqni itoatda saqlashda qo'rquv va vahima, ya'ni terror alohida o'rin egallagan. Bu haqda tarixiy dalillar talaygina. Zero uning tarixiy shakllarini chuqur tahlil etish Terrorizm muammosining echimini topishga imkon byeradi. Bunday turdag'i ilk terror qadimgi Italiyada diktator Sulla davrida sodir bo'lган¹. Mitridian 1 bilan Dardan sulhini tuzgach, Lutsiya Korneliya Sulla (mil.av. 82-79-yillarda hukmronlik qilgan) Italiyaga shoshilinch qo'shin tortadi. Sulla askarlari va marianliklar orasida jangovar to'qnashuv boshlanadi. Sulla bu to'qnashuvda g'alaba qozonib, Rimda diktatura o'rnatadi. Manbalar guvohlik berishicha, bu urushda 110 mingga yaqin kishi halok bo'lган. Shundan so'ng Rimda dahshatli qirg'inlar boshlanadi. Ko'chalarda barcha mol-mulki musodara etilgan, o'zi esa o'limga hukm qilinganlar ro'yxati osib qo'yilgan². Proskripcion ro'yxat faqat Rimda emas, balki Italiyaning barcha shahar va qishloqlarida tuzilgan. U o'zini diktator hisoblab, sodir bo'layotgan hodisalar uchun javobgar emas, deb e'lon qildi. Kelajakda butun hukumatni egallah,

¹ Bu haqida qarang: Всемирная история. Т.2. – Москва: Государственное издательство политической литературы, 1956. – С.366.

² Qarang: Словарь иностранных слов. – Москва: Г.И.И.Н.С, 1955. – С.570.

shaharlarni talon-taroj qilib, xunrezlik asosida qo‘lga kiritgan mol-mulkni o‘zi xohlagan kishisiga taqdim etishini e’lon qildi”¹.

Ikkinchisi, siyosiy harakat ko‘rinishida, ilk bor fransuz inqilobi davrida paydo bo‘ldi va radikal inqilobchilar tomonidan siyosiy muxolifatni qatag‘on qilish vositasi tarzida foydalanildi. Terrorning tarixiy rivojlanish dinamikasiga e’tibor berilsa, aynan shunday holat kuzatiladi. Har bir terror jarayonining asosida muayyan siyosiy maqsadlarni amalga oshirish yotadi, u yoki bu shaxs ustidan zo‘ravonlik, kuch ishlatish esa ushbu mamlakatdagi siyosatni saqlash yoki o‘zgartirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Siyosiy kurashning bu usuli ma’lum jamiyatda, mamlakatda yashovchi fuqarolar orasida qo‘rquv va dahshat tarqatishdir. Siyosiy maydondan o‘ziga nomaqbul davlat, hukumat, jamoat arboblarini yo‘qotish uchun terrorchi ular olib borayotgan asosiy yo‘nalishni bartaraf qilishga intiladi. Uning izdoshlari yoki vorislari xalq orasida parokandalik urug‘ini sochishga intiladi. Shu bilan birga bu jarayon atrofdagilarga katta ma’naviy-ruhiy jarohat yetkazadi.

Bu masalada tadqiqotchi I.Artamonovning quyidagi fikri ma’lum darajada asosli: "Terrorning asosiy maqsadi begunoh odamlarni yo‘q qilish va yo‘q qilinmaganlarni qo‘rqtish. Shuning uchun Usoma bin Lordin toifasidagi terrorchilarning vazifasi - butun dunyoni bo‘ysundirish uchun qo‘rqtish, agar buning iloji bo‘lmasa, dunyoni yo‘q qilish"².

Kuch ishlatishning turli: jismoniy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, axborot orqali va h.k. Shakllari bor. Zo‘rlikning aniq ifodalangan turlari mavjud bo‘lib, ularni bir-biridan farqlay bilish murakkab bo‘lgan hollarda ikki turini: ommaviy lashganlik va tashkil qilinganlik darajasini ajratish lozim. Mana shu ikki o‘lcham bir-biri bilan kesishgan joyda zo‘rlik ishlatishning to‘rt turini aniqlash mumkin.

Bular: ommaviy uyushgan; ommaviy uyushmagan (stixiyali); yakka holda uyushgan; yakka holda uyushmagan (stixiyali) zo‘rlik ishlatishlardir. Albatta, bularning har biri o‘z xususiyatlariga ega. Bizningcha, umumlashgan holda ularni tizimli va tizimsiz terror, deb farqlash mumkin.

Tizimsiz - alohida kishilarga, ko‘p hollarda, to‘satdan vaziyat qurboni bo‘lgan odamlarga nisbatan tartibsiz zo‘ravonlik qiluvchi yoki

¹ Плутарх. Избранные жизнеописания. Т. 2. – Москва: Правда, 1990. – С.71.

² Qarang: Артамонов И.И. Терроризм: способы предотвращения. Методика расследования. 2-е издание. – Москва, 2002. – С.5.

zo'ravonlik bilan tahdid qiluvchi tarqoq guruh harakati. Bunday guruh harakatini terror deb baholash o'rinli, chunki ularning harakatida terrorchilikning qo'poruvchilik, jarohat yetkazish, odam o'ldirish va shu kabi elementlarini kuzatish mumkin.

Tizimli - terrorni amalga oshirayotgan guruhda qat'iy, uyushgan, tartibli tizim yuzaga kelib, uni boshqarish aniq maqsad va faoliyat rejasi asosida olib borilsa, uni tizimli va uyushgan terror, deb ta'riflash mumkin.

Demak, ta'rifdan ko'rinish turibdiki, tizimli terror Terrorizmni yuzaga keltiradi. Terrorizmning terrordan farqi shundaki, Terrorizm ijtimoiy hayotning siyosiy doirasida yuzaga keladi. Terrorning tarixiy rivojlanish dinamikasiga e'tibor bersak, uning individual terrordan ommaviy terrorga o'zgarib borishida maqsadlar o'zgarishi sodir bo'lishini, ya'ni ma'lum bir siyosat amalga oshirilishini kuzatamiz. Demak, terror siyosiy maqsadda qo'llanilsa, terror siyosati amalga oshirilgan bo'ladi, ya'ni Terrorizm yuzaga keladi.

Shu o'rinda Belorussiyalik tadqiqotchi M.Trebinning quyidagi fikri e'tiborga loyiq: "Kurashning siyosiy shaklini qo'llovchi terrorchi guruhlar qanday shiorlar bilan maydonga chiqmasinlar, bu shiorlar ularning siyosiy zaifligidan darak beradi. O'z pozitsiyalarining xuddi shu zaifligi tufayli ular kurashning eng dahshatli usullaridan foydalanishga tayyordirlar"¹.

Yuqoridagi tahlillar Terrorizm siyosiy tasnifga egaligi va unga faqat siyosiy kuchlargina (davlat institutlari, siyosiy partiyalar va shu kabi boshqa elementlar) qarshilik ko'rsata olishi mumkinligidan dalolat beradi. Shuningdek, Terrorizm, terrordan farqli ravishda, o'zining siyosiy maqsadini o'ziga xos yo'llar bilan amalga oshiradi. Shu ma'noda S.Butrin: "...Terrorizm o'z shafqatsizligi, maqsadga izchil intiluvchanligi va tashqi tomondan yetarli darajada samaraliligi bilan ajralib turuvchi zo'rlik ishlatish, ayniqsa, siyosiy zo'rlik ishlatishning alohida shaklidir"², - deb ta'rif bergen.

Adabiy manbalar tahliliga ko'ra terrorning Terrorizmga aylanish bosqichlari quyidagi tartibda amalga oshadi:

¹ Требин М.П. Терроризм в XXI веке. – Минск: Харвест, 2004. – С.6.

²Бутрин С. Политические технологии противодействия терроризму в Российской Федерации. Автореф. дисс. канд. полит.наук. – Москва, 2006. – С.14.

- Jamiyatda ma'lum bir vaziyatlar natijasida jinoiy guruhlar paydo bo'lib, ular tomonidan aniq yo'nalishga ega bo'lman harakat, ya'ni tizimsiz (ko'r-ko'rona) terror sodir etiladi.
- Ayni shu sharoitda guruhlarda aniq belgilangan boshqaruv va tizim yuzaga kelib, terrorchilik faoliyati aniq rejaga asoslanadi, harakatlari esa tizimli va uyushgan bo'ladi.
- Jinoiy guruh siyosiy maqsadda tizimli terrorni mustaqil ravishda amalga oshiradi. Natijada, terror terrorizmga, jinoiy guruh esa terrorchilik tashkilotiga aylanadi.

Shunday qilib, terror, terrorchilik faoliyati, terrorchi birgalikda bir butun hodisa sifatida terrorizmni tashkil qiladi.

Tarixan qaraganda, terrorizm o'rta asrlardan boshlab barcha mintaqa va mamlakatlarda uchrab, o'z faoliyatlarini amalga oshirgan. Lekin o'tgan asrning oxirlaridan uning yangi ko'rinishlari vujudga keldi: jumladan, chet el davlatlari va hukumatlari rahbarlarini, ularning diplomatik vakillarini o'ldirish yoki o'g'irlash, elchixonalar, xalqaro tashkilotlarning binolarini portlatish, ayroportlar va vokzallarda portlash sodir etish, havo kemalarini olib qochish, odamlarni garovga olish va boshqa shunga o'xhash nomaqbul harakatlarni amalga oshirish. Bulardan ko'rindaniki, Terrorizmga aniq va yakdil ta'rif berish ancha murakkabdir. Ushbu vazifani hal qilishda O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrdagi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qabul qilingan qonunda keltirilgan tushunchalarning mohiyatini bilish orqaligina anqlik kiritish mumkin. Ushbu qonunning 2-moddasida Terrorizmga oid tushunchalar va ularning mohiyati bayon etilgan. Jumladan:

Garovda ushlab turilgan shaxs – qo'lga olingan yoki ushlab turilgan shaxsni ozod etish shartlari sifatida davlat hokimiysi va boshqaruv organlarini, xalqaro tashkilotlarni, shuningdek, ayrim shaxslarni biron - bir harakat sodir etishga yoki bunday harakat sodir etishdan tiyilishga majbur qilish maqsadida terrorchilar tomonidan qo'lga olingan yoki ushlab turilgan jismoniy shaxs.

Terrorchi - terrorchilik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etayotgan shaxs.

Terrorchilik guruhi - oldindan til biriktirib terrorchilik harakatini sodir etgan, bunday harakatga tayyorgarlik ko‘rgan yoki uni sodir etishga qasd qilgan shaxslar guruhi.

Terrorchilik tashkiloti - ikki yoki undan ortiq shaxsning yoki terrorchilik guruhlarining terrorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun barqaror birlashuvi.

Terrorchilikka qarshi operatsiya - terrorchilik harakatiga chek qo‘yish va uning oqibatlarini minimallashtirish, shuningdek, jismoniy shaxslar bilan kelishilgan va o‘zaro bog‘liq maxsus tadbirlar majmui.

Terrorchilikka qarshi operatsiya o‘tkazilgan zona - joyning yoki akvatoriyaning alohida uchastkalari, havo bo‘shlig‘i, transport vositalari, binolar, imoratlar, inshootlar, honalar hamda terrorchilikka qarshi operatsiya o‘tkazilgan doirada ularga tutash xududlar.

Terrorchilik faoliyati - terrorchilik harakatini uyushtirish, rejalashtirish, tayyorlash va amalga oshirishdan, tuzishdan, ularni moliyalashtirish va moddiy-texnik jihatdan ta’minlashdan iborat bo‘lgan faoliyat.

Terrorchilik harakati - garovga ushlab turish uchun shaxslarni qo‘lga olish yoki ushlab turish, davlat yoki jamiyat arbobining, aholining milliy, etnik, diniy va boshqa guruhlari chet el davlatlari va xalqaro tashkilotlar vakillarining hayotiga tajovuz qilish, davlat yoki jamoat ahamiyatiga molik ob’ektlarni bosib olish, shikastlantirish, yo‘q qilish, portlatish, o‘t qo‘yish, portlatish qurilmalarini, reaktiv, biologik, portlovchi, kimyoviy va boshqa zaharlovchi moddalarni ishlatish yoki ishlatish yo‘li bilan qo‘rqitish, yer usti, suv va havo transporti vositalarini qo‘lga olish, olib qochish, shikastlantirish, yo‘q qilish, aholi gavjum joylarda va ommaviy tadbirlar o‘tkazilayotganda vahima ko‘tarish va tartibsizlik keltirib chiqarish, aholi hayotiga, sog‘lig‘iga, jismoniy yoki yuridik shaxslar mol-mulkiga, avariylar, texnogen xususiyatlari halokatlar sodir etish yo‘li bilan zarar yetkazish yoki xavf tug‘dirish, tahdidiy har qanday vositalar, usullar bilan yoyish tarzida terrorchilik tusidagi jinoyatlarni, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va xalqaro xuquqning umume’tirof etilgan normalarida belgilangan terrorchilik tusidagi boshqa harakatlarni sodir etish.

Terrorizm - zo‘ravonlikka asoslangan uslub va vositalar yordamida siyosiy maqsadlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan tizimli va

uyushtirilgan, siyosiy mazmunga ega ijtimoiy hodisa.

Xalqaro Terrorizm- siyosiy, milliy va xalqaro huquq Me'yorlariga zid bo'lgan, davlat suverenitetiga, mintaqaga va qit'alarining barqaror taraqqiyotiga hamda xalqaro xavfsizlikka putur yetkazishga qaratilgan, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy-mafkuraviy ziddiyatlarni yuzaga keltiruvchi, xalqaro maqomga ega tizim.

Hozirda Terrorizmning zo'rayishi va global miqyos kasb etishi, jahon siyosatining dunyo yaxlitligini saqlab kelayotgan yo'naliishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi, o'z ko'lami, qamrovi jihatidan xilma-xil va butun yer shari, butun bashariyat, jahon sivilizatsiyasiga qarshi qaratilgan global xavf sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu tariqa bugungi kunda - **global terrorizm**, degan tushuncha ham qo'llaniladigan bo'ldi.

Shunday qilib, agressiya, kuch ishlatish, jismoniy yo'q qilish orqali inson tichligi va hayotiga xavf soluvchi zo'ravonlikka asoslangan faoliyat terrorchilik faoliyatidir. Bularni amalga oshiruvchilar esa terrorchilar deb yuritiladi. Terrorizm har qanday umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviyatga rioya qilmasligi, biron-bir aniq, sog'lom mafkuraviy va g'oyaviy asosga ega emasligi, jamiyat, xalq va davlat manfaatini ko'zlovchi siyosiy maqsadni o'z oldiga qo'yaganligi, har qanday milliy va xalqaro huquq me'yorlariga amal qilmasligi bilan ajralib turuvchi jinoiy faoliyatdir.

1.2. Terrorizmni iqtisodiyot va aholi uchun xavfli hususiyatlari

XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida Terrorizm insoniyat hayotiga katta xavf sola boshlab, o'zining niyatini oshkora namoyish eta boshladи. Jumladan, Nyu-York (AQSH) shahridagi Butunjahon savdo markazining ikki binosi sanoqli daqiqalar ichida yer bilan yakson bo'ldi. Shuningdek, Irlandiya va Angliyadagi "UPA", Ispaniyadagi "ETA", Osiyoda jinoyatkorona faoliyat olib borayotgan "Al - Qoida", "Xamas", so'nggi yillarda "ISHID" kabi yer yuzasining turli burchaklarida 500 ga yaqin terrorchilik tashkilotlari turli ko'rinishdagi qabih ishlarni amalga oshirdilar va hozirda ham olib bormoqdalar. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda 1975 yildan to bugungi kungacha dunyoning turli mamlakatlarida 12 mingga yaqin terrorchilik harakatlar sodir etilgan.

Oxirgi yillarda terrorchilik uslublari ancha kengayganligi ma'lum. 1970 yillarda biror shaxs yoki siyosiy arbobga qarshi uyushtirilgan terror amaliyoti ko'proq qo'llanilgan bo'lsa, hozirda jamoat joylarida, samolyot,

avtobus, poyezdlarda portlashlarni sodir etish orqali ko‘plab tasodifiy kishilarning qurbon bo‘lishiga olib keladigan qo‘poruvchilikni amalga oshirish yo‘lga qo‘yilgan. Avvallari terrorizm, odamlarni garovga olishdan maqsad pul undirish bo‘lgan bo‘lsa, hozirda terrorchilar asosan, xalqaro munosabatlar sohasida va mamlakatlarda beqarorlikni keltirib chiqarish borasida mo‘ljallangan siyosiy maqsadlarga erishishni ko‘zlamoqdalar. Xulosa shuki, bugungi kunda terrorchilik harakatlarining yanada faollashish jarayoni yuz bermoqda. U hozirgi kunda XXI asrning global muammosiga aylanib qoldi.

Terrorchilik tashkilotlari o‘zlarida mavjud bo‘lgan barcha imkoniyatlarni ishga solib, o‘z maqsadiga erishish uchun qonli yurishlarni qilmoqdalar. Ular turli xildagi kimyoviy va biologik qurollardan foydalanishga urinmoqdalar. Ma’lumotlarga qaraganda 200 martadan ortiq shunday qurol va vositalardan foydalanilgan. Jumladan, 1994 yil yaponianing "AVM Sinriso" diniy terrorchilik tashkiloti tomonidan "zarin" kimyoviy vositasini ishlatish oqibatida 7 kishi vafot etgan, 114 nafar kishi turli darajadagi tan jarohatini olgan. 1995 yilda mazkur terrorchilik tashkiloti tomonidan Tokio metrosi 16 ta bekating zararlanishi oqibatida 12 yo‘lovchi halok bo‘lgan, 400 kishi turli darajada tan jarohati olgan. Bunday zararli moddalar so‘nggi yillarda Quvaytda, Iroqning Kurdiston hududlarida, Suriyada va boshqa davlatlarda qo‘llanilib, ko‘plab insonlarning o‘limiga sabab bo‘lmoqda.

Terrorchi guruhlar yovuz harakatlarini amalga oshirishda kishi e’tiborini o‘ziga tortmaydigan, kichik hajmli, tashqi tomoni har kuni foydalaniladigan buyumlar ko‘rinishidagi narsalardan foydalanmoqdalar (masalan, chemodan, sumka, sellofan paket va boshqalar). Ular tomonidan qo‘llaniladigan qurollarning foydalanish ob’ektlari - odamlar ko‘p to‘planadigan joylar: metro bekatlari, ayroportlar, temiryo‘l va avtomobil bekatlari, katta binolar, yopiq turdagи konsyert va sport zallari, kinoteatrlar, yirik shaharlardagi suv haydash tizimlari, suv omborlari va boshqa ob’ektlar.

Ular ko‘proq portlovchi modda va qurilmalardan: fugas, mina, granatalardan foydalanadilar. Terrorchilarni bunday qurollardan foydalanib o‘z harakatlarini amalga oshirishlari kuchli ta’sirga kiradi. Chunki, bunday portlovchi qurilmalar har kimning e’tiborini o‘ziga

tortmaydi va o‘zi bilan birga uni olib yurish imkoniyati yuqori bo‘ladi. Masalan, "O‘yinchoq mina", "O‘yinchoq qopqonlar" va boshqalar.

Terrorchilar qo‘llayotgan turli ko‘rinishdagi portlovchi moddalarning xavfli maydoni quyidagicha:

- granata parchasining tarqalishi 50-100 m;
- mina parchasining uchishi 100-300 m;
- keysning xavfli maydoni 250-300 m;
- jomadon, sumkaga solingan portlovchi moddaning xavfli maydoni 350-400 m;
- avtomobilga qo‘yilgan portlovchi moddaning xavfli maydoni 50-300 m;
- "O‘lim belbog‘i"ning xavfli maydoni 50-300 m.

Terrorchilar tomonidan keng qo‘llanilayotgan qurollardan biri tuproq ostida portlatiladigan mina va fugaslar hisoblanadi. Fugas yoki mina tipidagi portlovchi moddalarni mina izlovchi jihozlar yordamida topish mumkin emas. Chunki bunday tipdagi portlovchi qurilma plastik materiallardan yasalgan bo‘lib, uni faqat savyorlarning maxsus tayoqchasi yordamida aniqlash mumkin. Buni aniqlash jarayoni o‘ta xavfli bo‘lib, kichik bir hato ham inson hayotiga xavf solishi ehtimoli juda yuqori.

Adabiy manbalardagi ma’lumotlar tahviliga ko‘ra¹, terrorchilik harakatlarining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

A) terrorchilik harakatlari qonun ustuvor bo‘lmagan, o‘zaro jipslashmagan, rivojlanish darajasi ancha past bo‘lgan hududlarda shakllanadi;

B) birinchi bo‘lib o‘zi shakllangan, birlashgan hududni o‘z tasarrufiga olishga harakat qiladi;

S) o‘ziga rivojlangan mamlakatlarda homiy izlashga harakat qiladi va har qanday homiy yordamini rad etmaydi;

D) targ‘ibotning har qanday usullaridan: reklamalardan, matbuot materiallaridan, og‘zaki tashviqotlardan, turli mish-mishlar va yolg‘on gaplar tarqatishdan o‘z maqsadlari uchun samarali foydalanishga urinadilar.

E) ular o‘zini portlatib yuboradigan (kamikadze) lar guruhini tayyorlaydi va o‘z harakatlarini bilvosita amalga oshiradi;

¹ Tojiev M., Nigmatov I. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent.: Tafakkur-bo’stoni, 2012. – B.151.

F) ular hozirgi kunda fan, texnika va texnologiyalar yutuqlaridan foydalanib, Terrorizmni "global" muammoga aylantirishga urinadilar;

G) ular o‘zlarini panoh topgan mamlakatlar boshqaruvini garovga olish yoki nazoratda ushlab turgan holatda keng jamoatchilikni qo‘rquitish, vahimaga solish, bo‘ysundirish maqsadida ko‘proq kuchli rivojlangan mamlakatlarda terrorchilik harakatlarni amalga oshiradilar va bu bilan o‘zlarini namoyish etishga urinadilar.

Ayni paytda, terrorizmning ham muhim jihatlari mavjud, ular xususida AQSH davlat departamentining 1999 yildagi global terrorizm to‘g‘risidagi ma’ruzasida ko‘rsatib o‘tilgan. Bular quyidagilardan iborat:

- yaxshi tashkil qilingan terrorchilik guruhlaridan tuzilgan xalqaro jinoiy uyushmaga aylanishi, bularni mahalliy homiy davlatlar qo‘llab-quvvatlab turishi;

- Siyosiy terrordan diniy yoki g‘oyaviy asoslari ustun bo‘lgan terrorizmga aylanishi;

- Terrorizm markazining yaqin sharqdan Janubiy Osiyoga, xususan, Afg‘onistonga ko‘chishi, terrorchilik tashkilotlar tomonidan ular jazosiz harakat qilishi mumkin bo‘lgan mintaqalardan joy qidirishi;

- Moliyalashtirishning xususiy homiylar, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilik va noqonuniy savdo-sotiq kabi manbalaridan foydalanish.

Bularning ichida xalqaro Terrorizmning eng asosiy va xavfli xususiyatlaridan biri "zo‘rlik - davlatni qulatuvchi va hokimiyatga erishishni osonlashtiruvchi, parokandalikka olib keladi" - degan g‘oyaga asoslanib harakat qilishdir. Bunda siyosiy masalalarni zo‘rlik yo‘li bilan hal qilishga harakat qilinadi. Bu haqda, amyerikalik mutaxassis Jenkins "Terrorizm eng avvalo, qurbanlardan ko‘ra, guvohlarga qaratilgan va vahima uyg‘otishga yo‘naltirilgan zo‘rlik" deb baholaydi. Boshqa bir amyerikalik siyosatshunos Lonsning ta’rifiga ko‘ra, terrorizm bevosita qurbanlardan ko‘ra ko‘proq odamlar fikriga ta’sir o‘tkazish uchun qilinadigan tahdid yoki kuch ishlatishdir.

Fikrimizcha, qanday ta’rif berilishidan qat’iy nazar, har bir terrorchilik xurujining maqsadi - davlat to‘ntarishini amalga oshirish, fuqarolar urushini keltirib chiqarishga asoslanadi, bunga yaqqol misol bugungi kundagi Iraq, Suriya kabi mamlakalaridagi terrorchilik harakatlarining oqibatlari.

II BOB. XALQARO TERRORIZMGA QARSHI SIYOSIY, G‘OYAVIY VA MAFKURAVIY KURASHNING IJTIMOIY- SIYOSIY ILDIZLARI

2.1. Xalqaro terrorizm va uning salbiy illatlari

Xalqaro terrorizm yoki terrorchilik deganda bir yoki bir nechta davlat hududida turib, boshqa davlatga va uning fuqarolariga qarshi uyushtirilayotgan jinoiy harakatlarning, moddiy jihatdan qudratli, xalqaro aloqalarga ega bo‘lgan ekstremistik tashkilotlarning yoki ayrim shaxslarning qo‘poruvchilik faoliyati tushuniladi. Xalqaro terrorchilar, avvalo, bosqinchilik, qotillik, portlatishlar uyushtirish, turli hududlarda ijtimoiy beqarorlikni sodir etish yo‘li bilan o‘zlarining shaxsiy yoki korporativ manfaatlarini amalga oshiradilar.

Afsuski, bu jarayon so‘nggi yillarda yana ham keng ko‘lamda, yana ham dahshatliroq kurash vositalari bilan tobora avj olib bormoqda. Prezident I.Karimov jahon hamjamiyati xavfsizligiga va bashariyat osoyishtaligiga xavf solib turgan xalqaro terrorizmga jinoiy hodisa sifatida baho berib bunday ta’kidlaydi: "O‘zgalar qonini to‘kish hisobiga mo‘may daromad olishni istovchilar batamom yo‘q bo‘lib ketadigan zamonlar kelishiga hali ancha borga o‘xshaydi. Bu toifaga kiruvchi "bizneschilar" uchun qon va nopol siyosat qorishgan pul dunyoning turli burchaklarida xalqaro qotillarni yollash va sinab ko‘rish mumkin bo‘ladigan mojarolarni rag‘batlantirish borasida eng qulay vosita ekanligini gapirmasa ham bo‘ladi"¹.

Prezidentimizning bundan 18 yildan ziyod vaqt oldin aytib o‘tgan ushbu fikrlarini hozirgi kunda nafaqat jahon miqyosida, shu bilan birga O‘zbekistonda sodir bo‘lgan terrorchilik hurujlariga tatbiq qilsak, yuqoridagi teran fikrni ma’lum darajada siyosiy bashorat sifatida e’tirof etish mumkin. Jumladan, 1999 yil aprel oyida Toshkent shahri va Navoiy viloyatida sodir bo‘lgan terrorchilik harakatlari ham buning isbotidir. Shuning uchun hozirgi kunda xalqaro terrorchilik tajovuziga qarshi jahon

¹Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.:O‘zbekiston. 1997.– B.96.

miqyosida, shu jumladan O'zbekistonda ham samarali kurash vositalarini ishlab chiqish zarurati tug'ildi. Bu kurash vositalari faqat ma'muriy va huquqiy choraldangina iborat bo'lib qolmasdan, balki ma'naviy, mafkuraviy va g'oyaviy kurash vositalarining mukammal tizimidan ham iborat bo'lmos'i zarur. Bunday kurash tizimini ishlab chiqishda, eng avvalo, xalqaro terrorchilikning O'zbekistonga kirib kelishi sabablarini yoritmoq zarur.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda xalqaro terrorchilik jarayonlari, asosan, diniy ekstremizmning kirib kelishi va tarqalishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun, avvalo, diniy ekstremizmning O'zbekistonga kirib kelishining ob'ektiv va sub'ektiv sabablari haqida to'xtalib o'tish joiz. Ushbu masalaning nazariy asoslari Prezident I.Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid va barqarorlik shartlari» asarida va "Tafakkur" jurnali bosh muharriri bilan qilgan suhbati (1998 yil)da mukammal ishlab chiqilgan. Bunda eng avvalo, Prezident I.Karimov masalaning mafkuraviy tomonidan ko'ra ko'proq ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tomonlariga e'tibor qaratib ta'kidlaydiki: "Adolat yuzasidan shuni e'tirof etish kerakki, diniy fanatizmning "otilib chiqishi"ga sof diniy ziddiyatlardan ko'ra ko'proq ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarning hal qilinmaganligi sabab bo'ladi. Aslini olganda, ayni shu muammolar, boshqacha fanatizmni, deylik, bolshevistik, millatchilik ruhidagi fanatizmni keltirib chiqaradi"¹. Shu o'rinda soha mutaxassis, tadqiqotchi olima N.Safarova o'z asarida² ta'kidlab o'tganidek:millatchilik mafkurasi faqat o'z manfaatlari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, boshqa millatlar manfaatiga qarshi qaratilgan ma'lum sharoitlar vujudga kelganda ekstremizmning turli ko'rinishlariga aylanib ketishi mumkin. Asarda u buni bolshevistik mafkura fanatizmi evolyusiyasi misolida asoslab bergen. Boshqa tadqiqotchi O.Abdullajonov o'z asarida : "sho'ro tuzumi kommunistik aqidaparastlikka asoslangan edi. Mohiyat e'tibori bilan bu tuzum aqidaparastlikning eng murosasiz ko'rinishlaridan bo'lib, o'z yo'nalishi, maqsadi, siyosati, strategiya va taktikasi biroz bo'lsa ham

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 1999.

Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.:O'zbekiston. 1997.– B.38.

²Safarova N. – "Terrorizm" (tarixiy-falsafiy tahlil). – Toshkent: Noshir- 2009. 216 b.– B.168

mos kelmaydigan har qanday qarash, harakat va tashkilotlarni tag-tomiri bilan yo‘q qilishga intiladi"¹, - deb yozadi.

Yuqoridagi tadqiqotchilarining fikricha, bolsheviklar qo‘llagan bunday "yo‘q qilish" jarayoni ko‘pincha mohiyatan terrorchilik ruhidagi kurash vositalari yordamida amalga oshirilardi. Kommunistik tuzum mafkurasining asosiy xususiyatlaridan biri dahriylik bo‘lgani uchun, u har qanday dinga qarshi ayovsiz kurash olib bordi. Mana shunday g‘arazli, ma’naviyatga zid mafkura sobiq Ittifoq tugatilgandan keyin ham o‘zining salbiy rolini o‘ynab kelmoqda. Faqat islom diniga e’tiqod qiluvchi xalqlargagina nisbatan emas, balki boshqa turli dinlarga e’tiqod qiluvchi xalqlarga nisbatan ham shunday bo‘lgan. Bu haqda yurtboshimiz I.A.Karimov: "Kommunistik mafkura ma’naviy qashshoqligi, fanatizmi va millatlarga qarshi qaratilganligi bilan sho‘ro hokimiyatidan keyingi makonda diniy fundamentalizm va an’anaviylik uchun sharoit yaratdi. Islom dinidagina emas, balki yahudiylik, xristian konfessiyalari -rus pravoslav, rim-katolik, arman - grigorian, lyuteran chyerkovlarida va boshqa jamoalarda ham shu hol ro‘y berdi"², - deb ta’kidlab o‘tgan.

Bolshevistik mafkuraning dinga va dindorlarga nisbatan qatag‘on siyosatini qo‘llashdan maqsadi odamlar ongidan diniy e’tiqodni mutlaqo chiqarib tashlash, uning o‘rniga kommunistik e’tiqodni singdirish edi. Kommunistik tuzum barcha dinlarga qarshi kurash olib bordi. Uning dindorlarga va dinga qarshi kurashi juda beshafqat tusda olib borildi. Jumladan, Rossiyada dinga qarshi olib borilgan yovuz qatag‘on haqida I.Bunich shunday ma’lumot beradi: "1922 yilning mayida patriarx Tixonni Muqaddas Sinodning hamma oila a’zolari bilan birga qamoqqa olishdi, 32 mitropolit va arxiepiskop otib tashlandi. Kiyev mitropoliti Vladimirning tanasi momataloq qilinib, bichilgan, keyin otilgan va yalang‘och holda chohga uloqtirilgan. Patriarx qazo qilgan taqdirda uning o‘rnini egallashi kerak bo‘lgan Petrograd mitropoliti Veniamin qahraton sovuqda ustidan suv quyib yaxlatilgan, keyin cho‘ktirib yuborilgan. Bir vaqtlar o‘z ixtiyorı

¹

Ибн Сина. Избранные философские произведения. – Москва: Наука, 1980.

Abdullahjonov O. Diniy aqidaparastlikning kelib chiqishi, mohiyati va O‘zbekistonga kirib kelishi. – Toshkent: Akademiya, 2000.– B.33

²Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.:O‘zbekiston. 1997.- B. 39.

bilan podsho yonidan surgunga kelgan Tobolsk yepiskopi Gyermocheya tiriklay kema chambaragiga bog‘lab qo‘yilgan. Chambarak aylanib, uning tanasini laxtak-laxtak qilgan. O‘tmishda yaponiyada xristian dinini targ‘ib qilib dong qozongan Pyerm arxiyepiskopi Andronik tiriklay yerga ko‘milgan, chyernigov arxiyepiskopi Vasiliy butga tortilib yoqib yuborilgan¹. Bulardan ma’lumki, bolsheviklar dahriylikni qaror toptirish uchun yuksak axloqiylik va ma’naviyilikka da’vat etuvchi dinga qarshi shunday yovuz jazo choralarini ko‘rganlar. O‘z navbatida, Afg‘onistonda terrorchilik faoliyatini olib borgan toliblar, O‘zbekistonda ham shunday faoliyat olib borishga harakat qilgan vahhobiylar va boshqa diniy ekstremistik terrorchi tashkilotlar o‘z kurash vositalarida bevosita yuqoridagi usullarni qo‘llashda ma’lum o‘xshashlik namoyon qilganlar.

Albatta, Bolsheviklar dinning hamma ko‘rinishlariga qarshi shafqatsiz kurash olib borganlar. Lekin uning islomga qarshi kurashi, ayniqsa beshafqat bo‘lgan. Bu kurash nafaqat jismoniy jihatdan, balki ma’naviy jihatdan ham beshafqat edi. Bu haqda Prezident I.Karimov shunday yozadi: «Din sun’iy ravishda mafkuraviy kurashning o‘ta qizg‘in jabhalaridan biriga aylantirib qo‘yilgan edi. Islom dinining o‘n minglab mo‘tabar ruhoniylari qatag‘on qilindi. Minglab machitlar va yuzlab madrasalar buzib tashlandi. Bu obidalarning ko‘pchiligi xalqimiz uchun, insoniyat sivilizatsiyasi uchun beba ho me’moriy va tarixiy qadriyat hisoblanar edi. Dindorlar ommasining aksariyat ko‘pchiligi 90-yillarning o‘rtalariga qadar Qur’oni Karimdan bahramand bo‘lolmagan edilar. Islom diniga nisbatan Bolsheviklar qo‘llagan qatag‘onning eng ulkan ma’naviy fojiasi ham ana shunda edi. Zero ko‘rilgan moddiy zararni u yoki bu darajada to‘ldirish, jismoniy yo‘qotishni vaqt o‘tishi bilan ma’lum darajada unutish mumkin. Ularning oqibati ham jamiyatning ma’lum bir qismi yoki guruhiiga taalluqli bo‘lishi mumkin. Lekin ma’naviy fojia butun jamiyatga, xalqqa katta musibat keltirib, uzoq davrlar mobaynida ommani majruh qilib qo‘yishi mumkin»².

Bunday harakatlar oqibatida O‘zbekistonda diniy ulamolarning asosiy qismi jismoniy jihatdan majruh qilindi. Natijada chala mullalar

¹ Бунич И. Партиянинг олтинлари // Жаҳон адабиёти. 1997. №4. – Б. 68-69.

² Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.

Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.:O‘zbekiston. 1997.– B.40

paydo bo‘lib, xalqimiz islom dinining haqiqiy mohiyatidan bexabarligidan foydalanib, uni turli g‘arazli mafkuralar maqsadlari yo‘lidagi "ko‘prik" ka aylantira boshladilar. Islomiy ma’rifat taqiqlab qo‘yilgan sobiq sovet respublikalarida chin ma’nodagi bilimdon islom murabbiylari kamayib ketdi. Natijada har xil xurofiy udumlar rivoj topdi. Islomiy, oliv haqiqatni faqat ular, "chala mullalar"gina biluvchi bo‘lib chiqishdi. Natijada, aqidaparast, ekstremistik guruhalr vujudga kelgan mafkuraviy bo‘shliqdan g‘arazli maqsad yo‘lida foydalana boshladilar. Shu nuqtai nazardan, hozirgi kunda mustaqilligimizga tahdid solayotgan aqidaparastlik ildizlari va uning oqibatida vujudga kelgan ekstremistik harakatlar sobiq sho‘rolar tuzumi bag‘rida yuzaga kelgan deyish mumkin. Buni bolsheviklar mafkurasining faqat dinga munosabatida emas, balki boshqa ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy masalalarga bo‘lgan munosabatida ham kuzatish mumkin.

Diniy ekstremizm va uning asosida vujudga kelgan terrorchilikning O‘zbekistonga kirib kelishining yana bir sababi - murakkab o‘tish davrida islom dinining bir-biriga zid vazifalarni o‘tashidir. Ushbu masalaning nazariy tomonini sharhlab, Prezident I.Karimov bunday deb yozadilar: "Bir tomondan, islom dinining madaniy qadriyatlari va an’analari, jahon miqyosida islom dini qoldirgan juda ulkan ma’naviy meros nafaqat mintaqamizning tarixiy rivojlanishiga ko‘p jihatdan qo‘shilgan hissani, balki uning hozir shakllanib borayotgan sifat jihatdan yangi qiyofasini ham belgilab bermoqda. Ikkinci tomondan, islom dinidan siyosiy kurash uchun, ommaning siyosiy ongiga ta’sir ko‘rsatish vositalariga ega bo‘lish uchun qurol sifatida foydalaniladi. U bir tug‘ vazifasini bajarishga qodir. Bu tug‘ ostida esa aniq bir dasturiy maqsadlarni izlovchi emas, balki faqat bir ko‘rsatmaga - hokimiyat uchun kurash olib borish haqidagi ko‘rsatmaga amal qiluvchi kuchlar birlashadi"¹. Demak, diniy ekstremistlar O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin vujudga kelgan o‘tish davrida islom dinining asl mohiyatini anglashda yuzaga kelgan murakkab qarama-qarshi holatlardan foydalanishga uringanlar va fuqarolar o‘rtasida turli noroziliklar, nizolar chiqarishga harakat qilganlar.

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.

Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.:O‘zbekiston. 1997. – Б.41.

Shuni ham ta'kidlash zarurki, hozirgi davrda islom dini nomidan go'yo ortiqcha zeb-ziynat va isrofgarchilikka qarshi kurash olib borayotgan ekstremistik va terrorchi tashkilotlarning rahbarlari, shu jumladan ularning O'zbekistonagi gumashtalari boylik orttirishdan o'zlarini hech mahal tiymaganlar. Bu haqida juda ko'p tadqiqotlarda, risolalarda, turli ommaviy axborot vositalarida ishonchli dalillar asosida ma'lumotlar berilgan¹.

Turli diniy ekstremistik va terrorchilik tashkilotlarining O'zbekistonga kirib kelishi sabablaridan yana biri butun islom dunyosida faoliyat ko'rsatayotgan turli rasmiy va norasmiy harakatlarning mamlakatimizda islom dini tutgan maqomni, uning boshqa dinlarga munosabatini belgilashga, ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishga intilishlari bo'ldi. Yurtimiz azaldan ko'p qirrali islom dunyosining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Shu ma'noda rasmiy va norasmiy harakatlar islomdan tor milliy manfaatlarni himoya qilishning asosi sifatida foydalanish maqsadini mahkam tutib, islomni o'z siyosiy rejalariga bo'ysundirishga urinishdi.

Ko'pchilik tadqiqotchilariga ko'ra, O'zbekistonda diniy ekstremizm asosida amalga oshirilgan terrorchilik harakatlarining tarqalish sabablarini o'rganish va tadqiq qilish tajribasi shundan dalolat beradiki, aynan yuqoridagi vaziyat bizning mamlakatimizni ham xalqaro terrorchilikning harakat maydoniga aylantirish uchun katta imkoniyatlar yaratdi.

Ayni paytda, bunday jangari to'dalar «gumanitar xarakter va yo'naliш»ga ega bo'lgan jamg'armalar, allaqanday «insonparvar» tuzilmalar hamda «diniy saboq beruvchi markaz»lar tomonidan mablag' bilan ta'minlanib borilgani ayon bo'lib qoldi. Masalan, Qirg'izistonning janubida sodir etilgan terrorchilik faoliyati ana shunday tashqi moliyaviy, moddiy va tashkiliy yordam vositasida yuz bergenligi, shubhasiz.

O'zbekistonga diniy ekstremizm g'oyalari va terrorchilikni kirib kelishining yana bir tashqi omili sharq falsafasining bir qismi bo'lgan islom sivilizatsiyasining fazilatlarini chuqur tushunishni istamaslik kayfiyatidir. Ma'lumki, islom diniga va sivilizatsiyasiga mansub qator

¹ Qarang:

Begmatov A. Aqidaparastlik manbalari // Islom: bag'rikenglik va mutaassiblik. – Toshkent: Univversitet, 1998; Fayziev S., Normatov K. Terrorizm va yoshlar: muammo, echimlar. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2007. Sharipov A. Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash g'oyalari// Falsafa va Huquq. 2005 №1

xalqlarning ko‘p yillar davomida mustamlakaga aylantirilishi nafaqat ularning siyosiy va iqtisodiy ezilishiga, shu bilan birga ma’naviy va madaniy jihatdan tahqirlanishiga, kamsitilishiga sabab bo‘ldi. Bu esa, o‘z navbatida, mustamlaka mamlakatlar xalqlari mustamlakachilikka qarshi kurashi jarayonida turli vositalardan, shu jumladan siyosiy va mafkuraviy jihatdan noto‘g‘ri, ma’naviy jihatdan nosog‘lom usullardan ham foydalanishiga olib kelishi mumkin. Bunday vositalarning xalqaro miqyosdagi zarari shundaki, ular turli dinga mansub xalqlar o‘rtasida birlariga nisbatan ishonchsizlik, dushmanlik munosabatlari vujudga kelishiga va qonli mojarolarga sabab bo‘lishi mumkin.

Aslida esa islom ekstremizmi g‘oyalarining Markaziy Osiyoga kirib kelishidan ko‘zlangan asosiy maqsad – diniy qadriyatlarni qaytadan tiklash emas, balki ana shu g‘oyalardan faqat vosita va niqob sifatida foydalanish orqali mintaqada beqarorlikni, diniy va millatlararo nizolarni vujudga keltirish, iqtisodiyotni turli yo‘llar bilan izdan chiqarish, iqtisodiy inqirozni keltirib chiqarish orqali hukumatni kuchsizlantirib obro‘yini to‘kishdir.

Bunda turli ommaviy axborot vositalari yordamida go‘yo «mamlakatda fuqarolarning vijdon erkinligi borasidagi huquqlari buzilmoqda va diniy e’tiqod poymol etilmoqda» kabi da’volar bilan ham konstitutsion hukumatga ishonchsizlikni keltirib chiqarishdir. Shuningdek, mamlakatdagi kam sonli diniy tashkilotlarga hujum uyushtirib, diniy adovatni kuchaytirish, millatlararo adovatni keltirib chiqarish orqali beqaror vaziyatni vujudga keltirishdir.

Shunday qilib, XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida sodir etilgan terrorchilik harakatlari uning yangi ko‘rinishlari yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi. Terrorizm ko‘zlagan maqsadini amalga oshirishda eng zamonaviy intellektual va texnik vositalarni qo‘llayotgan bo‘lib, ko‘لامи jihatidan hech qanday to‘siq bilmay, xalqaro miqyosdagi global muammoga aylanib bo‘ldi. Axborot terrorizmi, biologik terrorizm, iqtisodiy terrorizm, kosmik terrorizm, yadroviy terrorizm, kibernetik terrorizm, kimyoviy terrorizm va hokazolar shular jumlasidandir.

Shunday ekan, terrorizmga qarshi kurashning quyidagi tarixiy-falsafiy tamoyillari vujudga keldi, deb e’tirof etishadi, ko‘pchilik tadqiqotchilar:

- Davlat insonning tinchligini ta'minlash va jonini saqlashni kafolatlaydigan yagona mexanizmi.
- Nafs va xudbinlik turli odamlar, guruh, toifa, tabaqalar orasida o'zaro nizolar, bema'ni olishuvlar, konfliktlar kabi ijtimoiy ziddiyatlar sababi va terrorizmning o'ziga xos namoyon bo'lishi.
- Zo'ravonlik, kuch ishlatish, vayronkorlik kabi terrorchilik illatlarining oldini olishda yuksak insoniy fazilat va xususiyatlarni shakllantirish - ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat, ma'naviy meros yordamida amalga oshirilishi.
- Hamjihatlik, bag'rikenglik, totuvlik, birdamlik, o'zaro hamkorlik va murosa kabi umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi - ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy barqarorlikning kafolati.
- Insoniyat qoldirgan boy moddiy va ma'naviy merosgina jamiyat a'zolari ongi va e'tiqodida aksilterrorizm, bunyodkorlik, doimo yaxshilikka intilish kabi xususiyatlarni shakllantirishi.
- Yuksak axborot texnologiyalaridan foydalanish va axborot tarqatishda etika tamoyiliga asoslanish.
- Insonparvarlik g'oyalarni hayot mazmuniga aylantirishda nazariy va amaliy yondashuv hamohangligini ta'minlashda faqat inson yagona mas'ul.

Hozirgi davrda xalqaro terrorizmning keng yoyilishi inqilobiy jarayonlar, ishchi va demokratik harakatlar, milliy ozodlik kurashlari bilan ham bog'liq. Tabiiyki, iqtisodiy ezilish va milliy zulm oqibatida nafaqat inqilobiy va milliy ozodlik g'oyalari, balki ularga butunlay yot bo'lgan qarashlar, g'oyalari, mafkura va harakat ham yuzaga kelishi mumkin. Bunga ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlardagi milliy ozodlik harakatlariga rahbarlik qilgan partiyalar va tashkilotlarning mafkuraviy va g'oyaviy evolyusiyasi tarixi orqali ishonch hosil qilish mumkin. Tadqiqotchi Sh.Paxrudinovning yozishicha: "Tajriba ko'rsatadiki, mustaqillikka erishgan biron-bir xalqning tarixida mustaqillikni mustahkamlash va jahon hamjamiyatiga kirish jarayoni ma'lum sabablarga ko'ra jo'ngina ko'chgan emas. Jumladan, o'z mustaqilligini 60-70-yillarda qo'lga kiritgan Osiyo va Afrika mamlakatlari uchun hanuzgacha gegemonlikka daxldor davlatlar siyosatining qurboni bo'lish davom etmoqda. Ko'pgina Afrika davlatlari hamon yangi mustamlakachilik

ta'sirini bartaraf qila olganlaricha yo'q. Mana shuadolatsizlik tufayli bugungi kunda Afrika dunyoning eng tashvishli mintaqalaridan biriga aylangan bo'lib, dunyodagi 48 eng nochor mamlakatdan 33 tasi shu mintaqaga to'g'ri keladi»¹.

O'yaymizki, xalqaro terrorizmga qarshi siyosiy, g'oyaviy va mafkuraviy kurashda uning ana shu ijtimoiy-siyosiy ildizlariga ham e'tibor qaratmoq zarur. Aks holda, xalqaro terrorizmning geografik ko'lami, g'oyaviy va mafkuraviy ildizlari haqida noto'g'ri tasavvur vujudga kelib, unga qarshi kurash jihatni ham bir yoqlama, cheklangan bo'lib qolishi mumkin.

Shunday ekan, hozirgi paytda terrorizmga qarshi e'lon qilingan kurash aslo bironta dinga, shu jumladan islam diniga, alohida xalq, bironta millat yoki davlatga qarshi emas, balki, aynan, xalqaro terrorizm va uning "dohiy"lariga qarshi, uyushgan to'dalar va ularning markazlariga qarshi qaratilishi lozim.

Terrorizmning tarqalishi, moddiy va mafkuraviy jihatdan tobora mustahkamlanib borishining sabablaridan yana biri ayrim mamlakatlarning unga ikki yoqlama yondashishidir. Ba'zi tarixiy hujjatlar va ma'lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, hozirgi davrda terrorizmga qarshi faol kurashayotgan ayrim davlatlarning o'zi muayyan tarixiy sharoitlarda siyosiy va geosiyosiy, harbiy va iqtisodiy maqsadlardan kelib chiqqan holda xalqaro terrorizm tusini olgan tashkilotlarni siyosiy, iqtisodiy va harbiy jihatdan ba'zan yashirin, ba'zan oshkora ravishda qo'llab-quvvatlagan holatlar ham uchramoqda. Ta'bir joiz bo'lsa, bunday holatni bir qo'l bilan silab turib, ikkinchisi bilan shapaloq tortmoq, deb baholash mumkin. Shunga o'xshash fikrlarni bugungi kunda Suriya mamlakatida hukm surayotgan ISHID terrorchilik harakatiga qarshi koalitsiya kurashidagi eng mushkul vaziyat sifatida o'zining murojaatlarida Rossiya Prezidenti V.Putin ham bir necha bor ta'kidlab o'tgan edi².

Keltirilgan fikr mulohaza va dalillarni umumlashtirib, shunday xulosalar chiqarish mumkin :

¹ Paxrudinov SH. Taxdid - halokatli kuch. – Toshkent: Akademiya, 2001. – B.27-28.

² New-Yorkda o'tkazilgan BMT ning 70-sessiyasi. 2015 y. 15-sentabr.

• Terrorchilar qaysi g‘oya va mafkuraga tayanishlari, ma’naviy qadriyatlarni niqob qilib olishlaridan qat’iy nazar, ularning xatti-harakati ma’naviy jihatdan g‘ayriinsoniy, huquqiy jihatdan esa jinoyatdir.

• Xalqaro terrorizm o‘zining yovuz niyatlarini turli terrorchilik harakatlari bilan amalga oshirishga erishmoqda. Jumladan:

- mustaqil davlatlar chegarasini buzish orqali amalga oshirish;
- diniy ekstremistik guruhlар tomonidan sodir etish;
- ekstremistik guruhlар tarkibida qo‘poruvchilik harakatlari bo‘yicha horijlik yollanmachilarining qatnashishi;
- ekstremistik guruh a’zolarining boshqa davlatlar hududida tashkil etilgan maxsus lagerlarda tayyorgarlik ko‘rish;
- tayyorgarlik ko‘rish va qo‘poruvchilik sodir etishda, xorijiy davlatlar va ekstremistik uyushmalar yordamida xalqaro tus olgan noqonuniy qurol-yarog‘ va neft savdosi hamda narkobiznesdan keladigan manbalardan foydalanish.

Bulardan ko‘rinadiki, xalqaro terrorchilar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi ortdi. Terrorchilar qo‘liga yadroviy, kimiyoziy, biologik va boshqa zamonaviy hujumkor qurollarning tushib qolish xavfi kuchaydi. Bularning hammasi jahon jamoatchilagini qattiq tashvishlantirib qo‘ydi. Vaholanki, 1977 yilda katta "yettilik" davlatlari rahbarlarining Bonn (GFR) shahridagi uchrashuvida xalqaro Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida bayonet qabul qilingandi. Shunga qaramay, xalqaro Terrorizmning oshib borayotgan xavfi va unga qarshi kurash masalalari oliy darajadagi keyingi barcha uchrashuvlarning asosiy mavzusi bo‘lib qoldi. Endilikda, xalqaro terrorizm bir tizimga birlashib harakat qila boshladi. Ular safida turli davlat, millat vakillari, diniy ekstremistik ruhdagi shaxslar, narkobiznes va qurol-yaroq savdosidan foyda ko‘rvuchi jinoiy to‘dalar, yollanib xizmat qiluvchilar paydo bo‘ldi. Xalqaro terrorchilik va ekstremistik markazda razil jinoyatchilarni tayyorlaydigan maxsus lagerlar ochildi. Xalqaro terrorchilar aholini, xususan, dindorlar va yoshlarni davlatga, davlat tashkilotlariga qarshi qo‘yishga hamda hokimiyatga qarshi muxolifatni shakllantirishga harakat qilmoqda.

2.2. Islom niqobidagi terrorizm va uning asosiy yo‘nalishlari

Islom ekstremizmi o‘zining g‘arazli harakatlarida muqaddas Qur’oni Karim oyatlaridan foydalanib, islomning sof g‘oyalarini jamiyatga tatbiq etish emas, balki jamiyat a’zolarining e’tiborlarini chalg‘itib islom omili orqali hokimiyatga intilishdan boshqa narsani ko‘zlamaydi. Shu o‘rinda Prezidentimiz I. Karimovning fikriga e’tiborni qarataylik. «Oq-qorani, do’st-dushmanni taniydigan xalqimiz din nimayu soxta aqidalar nimaligini, kim pok niyatli xudojo‘y insonu, kim munofiq, riyokor ekanini yaxshi biladi. Taassufki, ba’zan islom dini va islom fundamentalizmi haqida gapirganda bu ikki tushunchani bir-biriga aralashtirib yuborish hollari uchramoqda... Muqaddas islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan allaqanday mutaassib kuchlar, tabiiyki, yer yuzidagi barcha musulmonlarning ruhiy olami va dunyoqarashini belgilay olmaydi», - deb qayd etadi yurtboshimiz.¹

Hozirgi vaqtida jahonda ekstremistik, terroristik tashkilotlarning 3 ta geografik o‘chog‘i yoki markazi mavjudligi adabiy manbalarda² qayd etiladi:

1-markaz, shimoliy Afrika: Misr, Jazoir, Sudanda «Musulmon birodarlar» tashkiloti 1928 yildan bo‘yon faoliyat ko‘rsatmoqda.

«Musulmon birodarlar» mamlakatlarni ozod qilish, «xalos bo‘lish ilohiyoti» g‘oyasini ilgari surgan islom inqilobiga da’vat etganlar. Ularning e’tiqod qilishicha, turmushning barcha sohalarida islom ustunligining qaror topishi uchun musulmonlar nafaqat «g‘arbiy xristian imperializmi», balki musulmon «g‘arbliklar»ga qarshi muqaddas urushni boshlashi lozim, chunki ular ham «islomchi»larning nazarida jabr o‘tkazuvchilardan, zolimlardan, kofirlardan iborat bo‘lgan. Shunday ekan, «mo‘min-musulmonlar, islomning haqiqiy jangchilari» mazkur islom tashkilotiga islom davlati uchun kurashga birlashishlari kerak. «Musulmon birodarlar» mavjud zamонавиy musulmon jamoatlari «noislomiy» yoki

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo’limiz bilan quramiz. 7-tom. – Toshkent: O’zbekiston, 1999.

Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.:O‘zbekiston. 1997.– B.35.

² Jumaev R.Z. Xalqaro terrorchilik - vayronkorlik manbai / Xalq so‘zi/, 2000 yil, 20 sentyabr.

«islomga qarshi» xarakterga ega ekanligini nazarda tutib, o‘zlarini chin musulmonlarga yetakchi bo‘lishlari zarurligiga ishonganlar.¹

2-markaz - yaqin sharqdagi Falastin, Iroq, Livan bo‘lib, u yerda asosan «Hizbulloh» faoliyat olib boradi. Bu tashkilot hozirgacha 800 ga yaqin terrorchilik jinoyatlarni amalga oshirgan.

«Hizbulloh» AQSH, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Kanada, Isroil, Avstraliya va Misrda terrorchi tashkilotlar ro‘yxatiga kiritilgan. «Hizbulloh»ga tinch aholi hamda harbiylarga qarshi terror usulini qo‘llagan harbiy-siyosiy tashkilot deb ayb qo‘yiladi. Livan armiyasining sobiq genyerali Ilyos Xonning fikriga qo‘ra, «Hizbulloh» livanliklar tarixida birinchi bo‘lib Livan janubini ozod etish bilan arab olami nomusini himoya qilgan.

Keyinchalik Suriyada yuzaga kelgan hokimiyat uchun kurashda «Hizbulloh» Bashar Assad tarafidori bo‘lib maydonga chiqdi hamda mazkur masalada Eron pozitsiyasini qo‘llab-quvvatladi. 2012 yil avgustda “Now Lebanon” gazetasida taxririyat maqolasi e’lon qilindi. Unda «Hizbulloh» faoliyati aslida Livan manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilganligi masalasi shubhaga olinadi. Ta’kidlanishiga ko‘ra, Isroil Livan uchun xavf tug‘dirmaydi. Aslida Isroil «Hizbulloh» hamda «Falastinni Ozod Qilish harakati»ga qarshi faoliyat olib borgan. Isroil Livan hududlarini bosib olish istagidan yiroqdir. «Hizbulloh» esa Livanning manfaatlarini himoya qilish bayrog‘i ostida, aslida Isroilga qarshi kurashish niyatidadir.

Falastinda «Xamaz» tashkiloti faoliyat ko‘rsatadi. Ular asosan, «Kamikadze» (o‘z-o‘zini qurban qilish) usulida kurash olib boradi. Mazkur harakat aslida 1987 yilda Falastinda ro‘y bergen birinchi Ozodlik harakati, ya’ni Intifoda harakatidan keyin Misrdagi «Musulmon birodarlar» tashkiloti hamda «Falastin islom jihodi harakatlari» kabi tashkilotlar tarkibidan mustaqil ajralib chiqqan tashkilotdir. Xamaz siyosiy partiya sifatida 1988 yil avgust oyidan faoliyat yurita boshlagan. U 2007 yildan boshlab Gazo sektorida o‘z hokimiyatini o‘rnatgan bo‘lib, aslida Falastin hududida o‘z faoliyatini tashkil etgan islom harakati va siyosiy partiyadir.

¹ Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To‘ldirilgan nashr / Mas’ul muharrir shayx Abdulaziz Mansur/. – Toshkent: sharq, 2014.

3-geografik markazni Janubi-sharqiy o‘choq deb atasa bo‘ladi. Pokiston janubida «Al-qoida», «Turkiston islom harakati», «Tolibon kuchlari» bor. Hindistondagi Kashmir viloyatida «Tablo» jamiyatি bo‘lib, ular Indoneziya, Filippinda ham faoliyat olib boradi.

Al-Qoida (poydevor) - islom niqobidagi, o‘ta radikal xalqaro terrorchilik tashkiloti. Uning faoliyati soxta xalifalik g‘oyalariga asoslangan bo‘lib, dunyoviy davlatni ag‘darish hamda xalifalikni qayta tiklashni bosh maqsad qilgan . Bu tashkilot Pokistondagi «Maktab al-hikmat» muassasasi ko‘magi bilan Usoma bin Lordin tomonidan 1988 yili tuzilgan, tashkilot XX asrning 80-yillarida Afg‘onistonda sobiq sho‘rolar qo‘shinlariga qarshi kurashga tayyor bo‘lgan ko‘ngillilarni yollash va ularni qurol-aslaha bilan ta’minlash maqsadi bilan shakllantirilgan.¹

Keyingi yillarda Iroq va Suriyada “ISHID” ekstremistik tashkiloti ham shakllanib faoliyat yuritayotgani ma’lum bo‘ldi. Ommaviy axborot xabarlariga ko‘ra u Iroq va shom Islom Davlati (ISHID) (ba’zan Iroq va Suriya Islom Davlati deb tarjima qilinadi) - sunniy, ekstremist, jihodchi, o‘zini xalifalik deb e’lon qilgan, Iroq va Suriyada faoliyat yuritayotgan, tan olinmagan davlat.²

ISHID 2014 yilning boshida Iroqning g‘arbida joylashgan shaharlardagi davlat harbiy kuchlarini siqib chiqargan. Iroqda katta hududni bosib olganidan keyin u 2014-yil iyun oyida Abu Bakr Al-Bag‘dodiy boshchiligida xalifalik o‘rnatilganini e’lon qildi.

Aslida ishidning tomirlari 2003-2011 yillardagi Iroq urushiga borib taqaladi. Jangari guruhning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tmishdoshi bo‘lmish Iroqdagi Al-Qoida (IAQ) Iroq hukumatiga va boshqa chet ellik kuchlarga qarshi bo‘lgan isyonda muhim rol o‘ynagan. Abu Musab al-Zarqavi boshchiligida IAQ mojaro davomida sodir etilgan eng mudhish hujumlarni amalga oshirgan. 2006 yil Zarqavining o‘limidan keyin guruh bir necha kichik ekstremist guruhlar bilan birlashdi va o‘zini Iroq Islom Davlati (IID) deb qayta nomladi. Bu o‘zgarish guruhning keng hududlarni bosib olish va jahon islom jamiyatiga yetakchilik qilish niyatida ekanligini ko‘rsatdi.

¹ Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To‘ldirilgan nashr / Mas’ul muharrir shayx Abdulaziz Mansur/. – Toshkent: sharq, 2014.

² Uz.Wikipediya.org

Iraq siyosatida diniy guruhlarga bo‘lgan munosabat, xususan Nuri al-Maliki hukumati tomonidan Al-Qaida va Baas tuzumining qoldiqlari bilan kurashish niqobi ostida sunniylarning repressiya qilinishi g‘arbiy Iraqda ekstremizm uchun sharoit yaratdi. 2011 yilga kelib sunniylar noroziligining kuchayishi va chet ellik harbiylarning mamlakatni tark etishi IAQ va ISHID larni yana tiklanishiga imkon yaratdi. Sunniy ekstremistlar tomonidan uyushtirilgan portlatishlar soni ko‘paydi. Natijada o‘sha yili Suriya Prezidenti Bashar al-Assadga qarshi g‘alayon sifatida boshlangan Suriya fuqarolar urushi ushbu guruhlар birlashmasi uchun qulay imkoniyatlarni yaratdi. Guruhning jangchilari osonlikcha Iraqdan sharqiy Suriyaga o‘tishdi. 2013 yil aprel oyida Bag‘dodiy o‘zining Suriya va Iraqdagi kuchlarini Nusrah Fronti bilan Iraq va shom Islom Davlati (ISHID) nomi ostida birlashtirish niyatida ekanligini e’lon qildi. Nusrah Fronti bunga qarshi chiqdi. Natijada ikki guruh orasidagi asosan jangchi yollash bo‘yicha bo‘lgan bellashuv avj oldi va pirovardida ikki tomon ochiqchasiga jang qila boshladi. ISHID davlat boshqaruvidan ancha avval chiqib ketgan sharqiy hududlarni tezlik bilan egallab oldi. Guruh markazida Raqqa shahri joylashgan o‘zi bosib olgan hududda qat’iy va talabchan shariat o‘rnatdi. Guruh janglarda erishgan yutuqlari, o‘z dushmanlariga va guruhga ko‘ra islomiy qonun-qoidalarni buzganlarga qilgan vahshiy muomalasini ko‘rsatib o‘zini targ‘ibot qildi. ISHID yana sharqiy Suriyadagi neft zavodlari kabi muhim insfrastrukturani ham egallab oldi. Bu zavodlar yordamida guruh qora bozorda neft sotib foyda ko‘ra boshladi.

ISHID o‘zi uchun markaz qilib olgan Raqqa shahridan boshqa hududlarga qarab kengaydi va Suriya va Iraqda bir necha muvaffaqiyatli hujumlarni uyushtirdi. 2014 yil yanvar oyida guruh asosan sunniylar yashaydigan Falluja va Ramadi shaharlarini bosib oldi hamda hukumat harbiylarini hayratda qoldirib shimolga qarab yurish qildi. Natijada Iraqning ikkinchi eng yirik shahri bo‘lmish Mosul shahrini qarshiliksiz egalladi. ISHID olg‘a siljir ekan, ijtimoiy axborot vositalari yordamida o‘z jangchilarining qo‘lga olingan Iraq askarlarini qatl qilganini ko‘rsatuvchi surat va videolarni tarqatdi. 2014 yil iyun oxirida guruh o‘zi bosib olgan hududda xalifalik e’lon qilingani va Bag‘dodiy uning xalifi ekanligi haqida audioyozuvni tarqatdi. O‘sha e’londan keyin guruh o‘zini shunchaki Islomiy Davlat deb atay boshladi. Ammo, guruhning butun dunyodagi

musulmonlarga yetakchilik qilish haqidagi muddaolarini boshqa musulmon guruhlar tan olmadi.

Ishidning Iroqda juda tez kengayishi xalqaro hamjamiyatni tashvishga soldi va Bag'dodda Malikining ag'darilishi bilan yakunlangan siyosiy inqirozga olib keldi. Xalqaro aralashuvga chaqiruvlar kuchaydi va 2014 yil 8 avgustda AQSH hukumati ishidning Iroqdagi avtonom kurd hududiga bostirib kirishining oldini olish uchun havo hujumlarini boshladi. Hujumlar ISHIDni yanada kengayishining oldini oldi, ammo guruhni allaqachon egallab olingan yerlardan chiqara olmadi. ISHID dahshatli targ'ibot qilishda davom etdi. 2014 yil sentabr oylarida g'arb jurnalistlari va yordamchi ishchilarining ISHID jangchilari tomonidan boshi olingani tasvirlangan videolar tarqatildi. Bu tasvirlar ishidning global xavf ekanligi haqidagi qo'rquvlarni kuchaytirdi. 23 sentabrda AQSH - Iordaniya, Birlashgan Arab Amirliklari, Bahreyn va Saudiya Arabistonidan iborat koalitsiyaga bosh bo'lib o'zining havo hujumlarini Suriyaga kengaytirdi.

Ishidning qisqacha tarixi shunday kechgan va bugunga kelib, uning Suriyada dahshatli tus olgan fuqarolar urushi avj olishiga sababchi bo'lib turgani dunyo hamjamiyatini qattiq tashvishga solmoqda. Yana ISHID jinoyatchilari bosqinchilik bilan egallagan hududlardagi neftni sotish evaziga daromad topmoqda¹. Shunday ekan, diniy ekstremizm asosida vujudga kelgan terrorchilikka qarshi O'zbekistonda samarali mafkuraviy, g'oyaviy va ma'rifiy kurash olib borishni kuchaytirishni taqazo etadi. Ushbu kurashda bir narsani unutmaslik kerakki, terrorchilar muayyan sharoitda ommaning diniy ong-saviyasi nisbatan past bo'lgan ma'lum bir qismining, xususan, yoshlarning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish usulidan ham foydalanadilar. "Hissiyot va ehtiroslar ta'siriga tushib qolgan inson, - deb yozgan edi akademik E.yusupov, - biror muammoni chuqur aqliy tahlil etish imkonidan ham mahrum bo'lib qoladi. Bu esa adolatsizliklarga, behuda qon to'kislarga, davlat qabul qilgan qonunlarni oyoq osti qilishga olib keladi. Qonunni mensimaslik - uni qabul qilgan jamiyatni ham mensimaslikdir².

Bunday davlat qonunlarini mensimaslik, uni oyoq osti qilish - o'z xalqi va Vataniga nisbatan siyosiy va huquqiy jihatlardan jinoyat, ma'naviy jihatdan esa ko'rnamaklikdir. Bu ko'rnamaklikning oqibati

¹Tulepov A. ISHID fitnasi. Ijtimoiy-diniy-ma'rifiy nashr. "Movarounnahr" -2015 – 46 b

²Yusupov E. Islomiy qadriyatlar va diniy ekstremizm. – Toshkent, 1999.– B.10.

milliy xavfsizlikka tahdid solibgina, begunoh qurbonlarga olib kelibgina qolmay, balki jamiyatning iqtisodiy ravnaqiga, davlatning xalqaro siyosiy nufuziga, xalqimiz ruhiyatiga katta moddiy va ma’naviy zarar ham yetkazadi. Chunonchi, O’zbekistonda terrorchilik harakatlarini sodir etishni rejalashtirgan rahnamolari 1999 yil fevralidagi portlatishlardan tashqari, Toshkentdagи ayrim elchixonalarning rahbar va xodimlarini garovga olishni ham rejalashtirganlar¹. Terrorchilarning mamlakatda parokandalik vaziyatini vujudga keltirish, aholiga dahshat solishdan maqsadi O’zbekistondagi diplomatik vakolatxonalar faoliyatiga zarar yetkazish, xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda tashkil etilgan qo’shma korxonalar ishiga bog‘liq loyihalarni chet el sarmoyalaridan mahrum etish edi. Bundan esa mamlakatimiz katta iqtisodiy, siyosiy va g‘oyaviy zarar ko‘rardi.

Yuqoridagi tahlillardan shunday xulosa qilish mumkinki, ko‘zlangan asosiy maqsad - O’zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalarda olib borilayotgan islohotlar jarayoniga putur yetkazish, xalqaro hamjamiyat bilan iqtisodiy va madaniy sohada olib borilayotgan samarali hamkorlikka to‘sinqilik qilish, xalqimizni o‘zi tanlagan to‘g‘ri yo‘ldan qaytarishga intilish bo‘lgan. Bu haqida muhtaram Prezidentimiz I. Karimov asarlaridagi² quyidagi fikrlarni keltirish joiz:

“Biz kechagi tariximizda ro‘y bergen mudhish kunlar haqidagi ma’lumotlarni yosh avlodga o‘z vaqtida yetkazsak, ularning ongida hech qachon bo‘shliq paydo bo‘lmaydi. Bo‘shlik degani shuki, kimlardir doim uning o‘rnini bir narsa bilan to‘ldirish payida bo‘ladi va qo‘yib bersangiz, bunday «chaqqon»lar istagancha topiladi. O‘zining egri niyatiga erishish uchun, kerak bo‘lsa, katta pul ishlatadi. Eng yomoni, muqaddas islam dinini buzib ko‘rsatishga urinib, yoshlarimizni to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itishdan ham toymaydi”. Bugungi kunda terrorizm taxdidiga qarshi kurashish, uni oldini olish murakkab jarayonga aylanib bormoqda. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, birgina 2009 yilning o‘zida dunyoning 83 mamlakatida amalga oshirilgan teraktlarda 15 700 nafar inson hayotdan bevaqt ko‘z yumgan³. Bundan hozirgi kunga kelib qancha yo‘qotishlar

¹ Альмееев Р., Қосимов Ф. В плена иллюзий. – Ташкент: Издательство литературы и искусства им. Г. Гуляма, 2004. – 103 б.

² Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish - eng oliv saodatdir. – Toshkent: O’zbekiston, 2015.

³

bo‘lganini tasavvur etish qiyin emas.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab terrorizm va ekstremizmning har qanday ko‘rinishiga qarshi qat’iyat bilan kurashib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro terrorizm ko‘rinishlariga qaratilgan ko‘plab xalqaro bitimlarning: "Havo kemalarini qonunga xilof ravishda egallab olishga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi 1970 yilda Gaaga konvensiyasining; "Fuqaro aviatsiyasining xavfsizligiga qarshi kurash to‘g‘risida" gi 1971 yildagi Montreal Konvensiyasining; "Xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslar, masalan diplomatik agentlarga qarshi jinoyatlarning oldini olish va jazolash to‘g‘risida"gi 1973 yildagi konvensiyaning; "Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida"gi va boshqa konvensiyalarning ishtirokchisi hisoblanadi. 2004 yildan Toshkentda shanhay hamkorlik Tashkiloti (SHHT)ning mintaqaviy aksiterror tuzilmasi ijroiya qo‘mitasi faoliyat ko‘rsata boshlagan. O‘zbekistonda Terrorizmga qarshi kurash masalalari va bu siyosatda uning o‘ziga xos o‘rni keyingi boblarda batafsил yoritilgan.

Альмеев Р., Косимов Ф. В плена иллюзий. – Ташкент: Издательство литературы и искусства им. Г. Гуляма, 2004.

Diniy ekstremizm va terrorizmga karshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari: O‘quv qo‘llanma / O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi Toshkent islom universiteti /, 2013.

III BOB. TERRORIZMGA QARSHI KURASHNING G‘OYAVIY TAMOYILLARI

3.1. Milliy qadriyatlarga xos bag‘rikenglikning Aqidaviy va huquqiy masalalari

Islom dini qadriyatlarining xalqimiz ijtimoiy-ma’naviy hayotida tutgan muhim ahamiyatini ta’kidlab, Prezident I.Karimov bunday deb yozadi: "sharq falsafasining muhim bir qismi bo‘lgan islom madaniyatining o‘zbek xalqi ma’naviyati tarixida tutgan muhim o‘rni shundaki, u odamlarni axloqiy poklikka, ma’naviy barkamollikka undagan. Umuminsoniy va ma’naviy-axloqiy mezonlarga tayangan holda kishilarni hamjihatlikka, totuvlikka, adolatga, mehr-muruvvatga, sahovatga, sabr-bardoshlilikka chaqirgan"¹.

Ma’lumki, terrorizmga qarshi g‘oyaviy kurashda tarixan asrlar mobaynida shakllangan falsafiy tamoyillarning ahamiyati beqiyos. Bular haqida tadqiqotchi N.Safarovaning “Terrorizm” asarida keltirilgan asosli ma’lumotlarning falsafiy tahlili e’tiborga loyiq².

Darhaqiqat, islom dini faqat aqidalar yig‘indisidan iborat bo‘lib qolmay, balki ushbu dinga e’tiqod qiluvchi xalqlarning ijtimoiy, huquqiy, g‘oyaviy, ma’naviy-axloqiy, ma’rifiy hayot tarzi haqidagi qonun-qoidalari, ko‘rsatmalari, pand-nasihatlari majmuasidir. Shunday ekan, islom dini, uning qadriyatları, Qur’oni Karim, hadisi sharif asosida ishlab chiqilgan shariat ahkomlari asrlar davomida musulmon xalqlari, xususan, o‘zbek xalqi ijtimoiy-ma’naviy hayotida o‘ta muhim o‘rin egallab kelgan. Biz buni xalqimizning qon-qoniga singib ketgan diniy bag‘rikenglik, xalqlararo totuvlik va hamjiqatlik, o‘zga millat va din vakillariga nisbatan hurmat-ehtirom, diniy murosasozlik kabi fazilatlarning namoyon bo‘lishida ham kuzatishimiz mumkin.

Muhimi shundaki, islomiy qadriyatlarda yuqoridaq axloqiy fazilatlarga da’vat faqat ushbu dinga e’tiqod qiluvchilarga nisbatan bo‘lgan munosabatlardagina emas, balki boshqa dinlarga e’tiqod qiluvchi

¹Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo’limiz bilan quramiz. 7-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.:O‘zbekiston. 1997. – B.35.

² Safarova N. – “Terrorizm” (tarixiy-falsafiy tahlil). – Toshkent: Noshir- 2009. 216 b.– B 121.

xalqlarga nisbatan bo‘lgan munosabatlarda ham namoyon bo‘lgan. Shuni alohida qayd etish joizki, musulmon xalqlari ijtimoiy, huquqiy, g‘oyaviy, ma’naviy-axloqiy, ma’rifiy hayot tarzining asosiy manbai hisoblangan Qur’oni Karimda insonlarning turli millatlarga va dinlarga mansubligi jihatidan bir-birlaridan farq qilishlari tabiiy ekanligi, lekin bu narsa ular o‘rtasidagi adovat, nizo va urushlar uchun sabab bo‘la olmasligi, Zero Ollo barcha insonlarni azizu mukarram qilib yaratganligi, millatlar va dinlar o‘rtasidagi tafovut ularning hamkorlik va hamjihatliqda yashashlariga xalaqit bermasligi haqida ko‘pgina oyatlar mavjud.

Umumbashariy ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan ilohiyat g‘oyalari, bir tomonidan, turli dinga e’tiqod qiluvchi xalqlar o‘rtasida adovat urug‘ini sochuvchi diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi, ikkinchi tomonidan, islam dini hamma vaqt boshqa dinga mansub xalqlarga nisbatan tajovuzkor, murosasiz munosabatda bo‘lib, muhim mafkuraviy ahamiyat kasb etadi. Bu haqida Prezident I.Karimov shunday deb yozadi: "... Basharti kimda-kim islomni va islomiy madaniyat davlatlarini yangi "yovuzlik sultanati" va yalpi xavf-xatar hududi deb tasavvur qilsa, bu hol XXI asrning butun kelajak tarixi uchun fojiali xato bo‘lur edi"¹. Yurtboshimizning ushbu mulohazalari yuqorida ko‘rsatilgan g‘oyaviy va mafkuraviy kurashda muhim ahamiyatga egadir.

Shu nuqtai nazardan go‘yo haqiqiy islomni tiklash uchun musulmonlarni "jihod" ga da’vat qiluvchi islam ekstremistik guruhlarining da’vosi asossizdir, chunki Qur’oni Karimning bir necha oyatlarida qaysi millatga va diniy e’tiqodga mansubligidan qat’i nazar, begunoh odamni qatl qilish qattiq qoralanadi.

Butun bir xalqqa, qavmga nisbatan qatag‘on urushini olib borishgina emas, hatto bir begunoh odamni qatl qilish ham butun jamiyatga, insoniyatga nisbatan qilingan dahshatli yovuzlik sifatida qoralanadi: "...kimki biron jonni o‘ldirmagan va yerda buzg‘unchilik qilib yurmagan odamni o‘ldirsa, demak, go‘yo barcha odamlarni o‘ldiribdi va kimki unga hayot ato etsa (ya’ni o‘ldirishdan bosh tortsa), demak, go‘yo barcha odamlarga hayot beribdi".

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo’limiz bilan quramiz. 7-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.

Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.:O‘zbekiston. 1997.– B.35.

Shu nuqtai nazardan, so‘nggi yillarda dunyoning turli mintaqalarida, jumladan, bizning respublikamizda ham o‘tmishda amalga oshirilgan va hozirgi kunda ham ba’zi-ba’zida amalga oshirish ishtiyoyqida turgan terrorchilik harakatlari qanday bahonalar bilan niqoblangan bo‘lmasin, bu jinoyatlar nafaqat ayrim odamlar yoki jamiyatga nisbatan, balki butun insoniyatga nisbatan amalga oshirilgan yovuz jinoyat sifatida qoralanmog‘i zarur. Bunday jinoyatga qarshi kurashmoq, hatto, zarur bo‘lsa, bu kurash yo‘lida qurban bo‘lmoq esa, butun insoniyat manfaati yo‘lida qilingan eng ezgu ish deb hisoblanmog‘i lozim. Ko‘rinib turibdiki, Qur’oni Karimda turli xalqlarning turli dinlarga e’tiqod qilishi ular o‘rtasida adovat, urush, bir-birlariga nisbatan dushmanlik munosabatida bo‘lish, zulm o‘tkazish uchun sabab bo‘la olmasligi, bir-birlari bilan hamjihatlikda yashash, hamkorlik qilish, hurmat-ehtiromda bo‘lishga monelik qila olmasligi haqida qator oyatlar mavjud.

Shu nuqtai nazardan, hozirgi zamon diniy fundamentalizm, ekstremizm va Terrorizmga qarshi kurashning turli samarali vositalaridan biri sifatida islomiy qadriyatlarning yuqoridagi sahifalarda bayon qilingan g‘oyalaridan foydalanish ijobiy samara berishi shubhasizdir.

Buning isbotini sohibqiron Amir Temur faoliyatida ham ko‘rishimiz mumkin. Ul zot o‘z davlatchilik faoliyatida turli dinga va millatga mansub davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va do‘slikni, iqtisodiy va siyosiy aloqalarni mustahkamlashga katta e’tibor bergen va bu borada ulkan muvaffaqiyatga ham erishgan. Buni Prezidentimiz faxr bilan ta’kidlab: "Amir Temurning tarixiy xizmati yana shundan iboratki, uning harakatlari tufayli Osiyo va Yevropa davlatlari tarixda birinchi marta yagona jug‘rofiy-siyosiy makonda ekanliklarini his etdi. Bu faqat ulkan afzallikkagina emas, savdogarlar, xalqlar hech qanday to‘sqiniksiz harakat qiladigan yangi yo‘llarning ochilishida ham namoyon bo‘ldi. O‘zaro ishonch, hamkorlik, umumiy murosaga kelish mumkinligiga aminlik o‘sha murakkab va jo‘shqin davr quvonchlari va azoblarida vujudga kelgan asosiy qadriyatlardir"¹.

Hozirgi kunda ham juda ko‘p musulmon mamlakatlar, shu jumladan aholisining aksariyat qismi islom diniga e’tiqod qiluvchi O‘zbekiston mamlakati ham boshqa dinlarga e’tiqod qiluvchi xalqlar yashovchi jahonning turli mamlakatlari bilan ushbu an’analarni davom ettirib,

¹ Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lida. 4- tom. – Toshkent. O‘zbekiston, 1996. – B.342.

do'stona aloqalar o'rnatganlar, tinch-totuv va hamjihatlikda yashash imkoniyatini beruvchi tinchliksevar siyosat olib bormoqdalar, keng ko'lamda iqtisodiy va madaniy hamkorlik qilmoqdalar. Yana shuni ham ta'kidlamoq zarurki, ilk o'rta asrlardayoq nisbatan ichki siyosat masalasida ham diniy murosasizlik inkor qilinib, uning o'mniga diniy bag'rikenglikning ajoyib namunasi bo'lgan qonunchilik, shariat hukmlari ishlab chiqilgan. Chunonchi, musulmon mamlakatlarda yashovchi boshqa dinga e'tiqod qiluvchilarni "zimmiy"lar deb atalib, shariat hukmi bo'yicha ularning hamma moddiy va ma'naviy huquqlari, ya'ni mol-mulki, hayoti, diniy e'tiqodi, urf-odatlari, tili, madaniy merosi daxlsizligini ta'minlashni musulmon mamlakat o'z zimmasiga olishi musulmon qonunchiligi (fiqh)da qayd etilgan¹.

Shu munosabat bilan aytish mumkinki, o'rta asrlardayoq musulmon xalqlari, shu jumladan Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy-siyosiy fikrida ma'lum darajada diniy murosasozlik va bag'rikenglikning huquqiy asoslari ham ishlab chiqilgan. Buning isboti sifatida musulmon qonunchiligining eng nufuzli asoschisi, vatandoshimiz Burhoniddin Marg'inoniyning (1123-1197) butun musulmon dunyosida o'rta asrlardan boshlab shu davrgacha musulmon qonunchiligi bo'yicha eng mo'tabar manba hisoblanuvchi "Hidoya" asarini keltirish mumkin.

Shu munosabat bilan tadqiqotchi M.Usmonovning quyidagi asosli fikrlariga to'liq qo'shilamiz: "Marg'inoniyning fikrlari katta ma'naviy ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, ma'lum darajada g'oyaviy va siyosiy ahamiyatga ham ega. Chunki ularda, birinchidan, insonparvarlik, insoniy muruvvat, mehr-shafqat nuqtai nazaridan fikr yuritilayotgan bo'lsa, ikkinchidan, boshqa dinga e'tiqod qiluvchilarning islom davlatida nafaqat moli va joni himoyaga olinishi haqida, shu bilan birga ularda moddiy yordamga ehtiyoj sezilganida ham himoya qilinishi haqida hukm chiqarilayapti. Shuningdek, azaldan xalqimizga xos diniy bag'rikenglik ma'lum darajada huquqiy tomondan ham e'tirof etilmoqda. Bu jihatdan alloma qarashlari ko'p millatli respublikamizda millatlararo va dinlararo totuvlikni yana ham mustahkamlashda va, hatto, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashda katta g'oyaviy ahamiyat kasb etishi shubhasiz"².

¹ Qarang: Ислам. Энциклопедическая словарь. – Москва: Наука. 1991. – С. 27 - 28.

² Usmonov M. Burhoniddin Marg'inoniyning "Xidoyat" asarida diniy bag'rikenglikning ayrim masalalari // Ma'rifat. 2003 yil, 19-iyul.

Shu bilan birga musulmon qonunshunosligi bo'yicha musulmon davlatiga savdo yoki boshqa biror sabab bilan kirgan g'ayridin davlat fuqarosi omonlik, ya'ni himoyaga kafolat olishi shart bo'lган. Bu borada Marg'inoniyning ta'kidlashicha, g'ayridin davlatga biror sabab bilan kirgan musulmon davlatlar fuqarosi ham xuddi shunday omonlik, ya'ni himoyaga kafolat olish huquqiga ega bo'ladi. Demak, o'rta asrlardayoq turli dinga e'tiqod qiluvchi davlatlar o'rtasida fuqarolar huquqlarini himoya qilishning huquqiy asosi bo'lган va bunga qat'iy rioya qilish talab etilgan. Shunday ekan, har ikki holda ham bir xil qonun-qoidaga amal qilingan.

Ushbu holat o'rta asrlardayoq, bir tomondan, musulmon va g'ayridin mamlakatlar o'rtasida tinchlik-omonlik o'rnatish, iqtisodiy va savdo aloqalarini rivojlantirish borasida katta siyosiy ahamiyatga ega bo'lган bo'lsa, ikkinchi tomondan, musulmon va g'ayridin xalqlar o'rtasida o'zaro ishonch, hurmat-ehtirom va diniy bag'rikenglik rishtalarini mustahkamlashda katta g'oyaviy ahamiyatga ham ega bo'lган. Shu munosabat bilan Marg'inoniyniig boshqa dinga e'tiqod qiluvchilarga nisbatan diniy bag'rikenglik his-tuyg'usi bilan yondashishning ma'naviy asoslari haqidagi quyidagi fikrlari alohida diqqatga sazovordir: "Ular musulmonlarning barcha mollarini olib qo'ygan takdirda ham bizlar ularning barcha molini olmaymiz. Chunki barcha molni olib qo'yish biz musulmonlarning sha'niga loyiq emasdir. Agar ular bizlardan hech narsa olmayotgan bo'lsalar, bizlar ham hech narsa olmaymiz. Shunda ular ham bizning tijoratchilardan to'lov olmaydilar. Zero biz musulmonlar makorimi axloq (yuqori axloq) sohibi bo'lishga loyiq kishilarmiz"¹.

Demak, musulmon huquqshunosligida, xususan, vatandoshimiz Marg'inoniyning "Hidoya" asarida diniy bag'rikenglikning nafaqat huquqiy asoslari, shu bilan birga uning ma'naviy-axloqiy tomonlariga ham katta ahamiyat berilgan. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tmoq joizki, Marg'inoniyning "Hidoya" asari, shu jumladan uning zakot va soliq haqidagi hukmlari real hayot sharoitiga moslanganligi, insonparvarlik g'oyalariga tayanganligi tufayli, bir tomondan, asrlar davomida ko'pgina faqihlar ta'limoti uchun g'oyaviy manba bo'lib xizmat kilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ayrim hukmdorlar tomonidan davlatchilik ishlarida eng maqbul va nufuzli shariat qo'llanmasi bo'lib xizmat qilgan. Ular diniy

¹ Burhoniddin Marg'inoniy. Hidoya. I jild. – Toshkent: Adolat, 2002. – B.329-380.

fundamentalizm, ekstremizm va ma'lum darajada diniy murosasizlik asosida vujudga kelgan terrorizmning diniy e'tiqod nuqtai nazaridan ham asossiz ekanligidan dalolat beradi. Prezidentimiz I.Karimov buning hozirgi davrimizdagi ahamiyatini ta'kidlab: "Agar mendan, nega milliy qadriyatlarimiz shuncha zamonlar osha bezavol yashab kelayapti, deb so'rashsa, bu -avvalo, muqaddas dinimiz hisobidan, deb javob bergen bo'lur edim. Shu zaminda o'tgan necha-necha avlodlar diniy e'tiqodni yurakda saqlamasa, islom falsafasini rivojlantirib kelmasa, biz bebahvo va betakror ma'naviy-ruhiy merosdan mahrum bo'lib qolardik"¹, -deb yozadi.

Yuqorida bayon qilingan xulosalarni, fikr-mulohazalarni, manbalardan keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Respublikamizda diniy fundamentalizm va Terrorizmning tarqalishi, unga qarshi samarali kurashishning nafaqat siyosiy, ma'muriy va huquqiy vositalari, shu bilan birga o'rta asrlardayoq shakllangan va boy an'analarga ega bo'lgan g'oyaviy va ma'naviy vositalari ham mavjuddir. Bular ilk o'rta asrlardanoq xalqimiz ma'naviyatining ajralmas va muhim sahifalarini tashkil etuvchi Qur'oni Karim oyatlari va ularda ifodalangan g'oyalar, diyorimizdan etishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom T²ermizi, Zamaxshariy kabi muhaddislarimiz asarlaridagi ulkan ma'naviy ahamiyatga molik fikr-mulohazalar, buyuk vatandoshimiz Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" va boshqa asarlarida chiqarilgan shariat qoidalaridir.

- Markaziy Osiyoda o'rta asrlardayoq islom qobig'ida vujudga kelgan fiqh (musulmon huquqshunosligi)ning diniy bag'rikenglik ruhidagi ayrim g'oyalari hozirgi davrda ham diniy fundamentalizm va ekstremizmni inkor qiluvchi, ham milliy, ham diniy qadriyatlarimizdan biriga aylandi. O'zbek xalqi ijtimoiy-falsafiy fikri tarixida dinlararo va xalqlararo adovat hamda urushlarga qarshi kurashga qaratilgan ma'naviy qadriyatlardan yana biri vatanimizdan etishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarimiz o'rta asrlardayoq xalqlararo do'stlik va hamjihatlik, mamlakatlararo hamkorlik, dinlararo ishonch va hurmat-ehtiromning

¹Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, yerkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2000.- B.503-504.

ijtimoiy, nazariy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy tomonlari asoslarini ishlab chiqishgan.

3.2. Murosasozlik va xalqlararo hamjihatlik g'oyalarining asoslari

O'rta asrlar Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiy fikrlari tarixi xalqlararo totuvlik va hamjihatlik, diniy bag'rikenglik va o'zaro ishonch, turli dinga e'tiqod qiluvchi mamlakatlar xalqlari bilan iqtisodiy va madaniy hamkorlikka intilish orqali diniy mutaassiblik va adovatga qarshi g'oyaviy jihatdan muvaffaqiyatli kurash olib borilganidan guvohlik beradi. Siyosiy, iqtisodiy va huquqiy jabhalarda ma'lum natijalarga erishishda o'sha davrlarda vujudga kelgan nazariy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy g'oyalarning hissasi benihoya kattadir.

Unda dinning asosiy xizmati, eng avvalo, fuqarolarni yuksak axloqiylik ruhida tarbiyalash, o'zaro totuvlik va hamjihatlikka da'vat etish va, oqibatda, jamiyatda barqarorlik, odamlar o'rtasida tinchlik-omonlik va totuvlikni ta'minlash hisoblangan. Markaziy Osiyo mutafakkirlari xalqlar va mamlakatlar o'rtasida o'zaro ishonchsizlik, adovat his-tuyg'ularining kuchayishiga sabab bo'luvchi diniy mutaassiblik va g'arazni qattiq qoralab, diniy bag'rikenglik hamda murosasozlik g'oyalarini ilgari surganlar. Dinga bunday yondashuv an'analari o'rta asrlarda ushbu g'oyalarni ijtimoiy va madaniy-ma'naviy hayotda amaliy qo'llashga harakat qilish bilan yana ham mustahkamlangan.

Xalqlar o'rtasida tinchlik-totuvlik o'rnatish, hamkorlik va hamjihatlikda yashash g'oyasini izchil ishlab chiqqan va uni nazariy-falsafiy asoslashga harakat qilgan buyuk mutafakkirlardan biri vatandoshimiz Abu Nasr Forobiydir (873-950). Forobiy o'zining ko'pgina asarlarida va risolalarida inson jamoalari kelib chiqishining tarixiy va ijtimoiy sabablarini ko'rsatgan. Shuningdek, insonlar bir-birining yordamisiz yashay olmasligi, hamkorlik va o'zaro yordamgina inson jamoalari vujudga kelishini hamda jamiyat barqarorligi va ravnaq topishining ham eng asosiy sababi ekanligini ko'rsatadi. Bu haqda Forobiy shunday deb yozadi: "Inson o'z tabiatni jihatidan shunday tarkib topganki, o'zining mavjudligi va oliy darajadagi kamolotga erishuvi uchun ko'p narsalarga muhtojdir. U bularning barchasiga bir o'zi erisha olmaydi va

ularga erishish uchun kishilarning qandaydir jamoasiga muhtoj. Bu jamoaning har bir a'zosi u muhtoj bo'lgan narsalarning birontasi bilan uni ta'minlaydi. Jamiatning har bir a'zosi ham bir-birlariga nisbatan xuddi shunday holatda bo'ladilar. Mana shu sababli, bir-biriga yordam beruvchi juda ko'p kishilarning birlashuvi orqali inson o'zi intilgan kamolotga erishuvi mumkin"¹. Albatta, mutafakkirning bu qarashlari, bir tomondan, jamiyatning asl mohiyati, unda har bir a'zoning tutgan o'rni, burchi va vazifasini ko'rsatuvchi ma'naviy-axloqiy ahamiyatga ega g'oya bo'lsa, ikkinchi tomondan, insonlarni hamkorlik va hamjihatlikka da'vati hamdir. Muhimi shundaki, Forobiyning ta'kidlashicha, bunday jamoa aholisi turli irq, millat, din, urf-odatlar, an'analarga mansub bo'lgan kishilardan iborat bo'lishi mumkin.

Forobiyning ushbu fikrlarini hozirgi davrda respublikamizda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy o'zgarishlar jarayoniga, xususan, milliy va diniy qadriyatlarimiz qayta tiklanayotgan sharoitga tatbiq etar ekanmiz, islomga tashqaridan siyosiy tus berishga har qanday urinishlar siyosiy va g'oyaviy jihatdan asossiz ekanligi aniq bo'ladi. Prezidentimiz I.Karimovning quyidagi fikrlari beziz aytilmagan: "Islom milliy an'analarining, islom madaniyatining tiklanish jarayoni islomni tashqaridan har qanday "import" qilishdan voz kechish, islomga siyosiy tus berish va siyosatga islom ruhini baxsh etishdan voz kechish to'g'ri ekanligini ko'rsatdi. Movarounnahrning musulmon madaniyati etnik sabr-toqat va bag'rikenglik ruhini o'zida aks ettirdi. Uning Forobiy va Ibn Sino asarlarida o'z in'ikosini topgan ideali - Fozil kishilar shahri nafaqat diniy asosda, balki madaniy va axloqiy negizda ham uyushgan odamlarning hamjamiyatidan iborat bo'lganligi tasodifiy hol emas"².

Yuqoridagi g'oyalarni respublikamiz fuqarolarining tafakkuriga har tomonlama singdirish ko'p millatli mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgani holda, xalqimiz ongini diniy fundamentalizm va ekstremizm g'oyalari bilan zaharlashga harakat qilayotgan vahhobiylar va boshqa buzg'unchi terrorchi guruhlarga qarshi kurashda ulkan g'oyaviy va siyosiy ahamiyatga ega.

¹ Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. -T.: yozuvchi, 2001. – B.27-28.

² Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 1999.

Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.:O'zbekiston. 1997.– B. 144-145.

Mutafakkir fikrlarining hozirgi davrimiz uchun ham ijtimoiy-siyosiy ahamiyati shundaki, bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillari ustuvor bo'lган jamiyatda har tomonlama mustahkam ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi. Bunday sharoitning vujudga kelishi esa jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy ravnaqiga yo'l ochadi. Bu omilning Prezidentimiz I.Karimov tomonidan nazariy asoslanganligi jiddiy e'tiborga loyiq: "Ko'p millatli va ko'p tilli mamlakatlarda o'z davlatlariga nom bergan asosiy millat bilan bu mamlakatlarda istiqomat qiluvchi etnik ozchilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ichki siyosiy barqarorlik va milliy xavfsizlikning hal qiluvchi shartlaridan biri bo'lib qolmoqda. Milliy xavfsizlik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasi ko'l millatli davlatda yashayotgan boshqa millatlar vakillarining siyosiy xayrixohligiga bevosita bog'liq bo'ladi"¹.

Juda ko'p millat va elat vakillari, turli dinga e'tiqod qiluvchi xalqlarni o'z bag'riga olgan yurtimiz uchun yuqoridagi g'oyalalar dolzarb ahamiyatga ega. Ular, avvalo, yurtimizda fuqarolar uchun siyosiy barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga safarbar qiluvchi bir g'oyaviy da'vat bo'lsa, ikkinchi tomondan, diniy fundamentalizm va terrorizmning vujudga kelishida g'oyaviy hamda siyosiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lган buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik xavfiga qarshi kurashda ham kuchli g'oyaviy qurol bo'lishi mumkin.

Birdamlik, o'zaro hamkorlik, totuvlik, ozodlik singari ijtimoiy hodisalar har bir individning o'zini saqlashga bo'lган intilishi ekanligi Ibn Sino qarashlarida o'ziga xos tarzda ko'rsatib o'tilgan². Jamoa tuzumi uning a'zolarining o'zaro yordamlashish va hamkorlik me'yorlari asosida barqaror bo'la oladi. "Agar ular orasida nizo ro'y bersa, ularning har biriadolatni shunday narsa, deb bilsinki, u narsa jamoa a'zolarining barchasi uchun foydali bo'lsin,adolatsizlikni shunday narsa deb bilsinki, u narsa jamoa a'zolari uchun ziyon keltiruvchi hisoblansin"³.

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 1999.

Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.:O'zbekiston. 1997.– B.69.

²Bu haqida qarang: Ибн Сина. Избранные философские произведения. – Москва: Наука, 1980.

³ Boltayev M. Abu Ali ibn Sinoning falsafiy – ijtimoiy ta'limoti. – Buxoro, 2001 – B.17.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) Buyuk ipak yo‘lida joylashgan Vatanimiz hududida va xalqimiz xarakterida milliy hamda diniy bag‘rikenglik yuksak darajada rivoj topganligi xususida tarixiy ma’lumotlar keltiradi. Uning ta’kidlashicha, odamlar bir-birlariga yordam berish, turmush uchun zarur bo‘lgan narsalarni yaratish, har qanday ofatlardan saqlanish, hamkor, hamdard, hamdast bo‘lish va xavf-xatarsiz yashash maqsadida jamiyatga uyushganlar. Kishilar jamoasi vujudga kelishining asosiy sababi ham ana shu o‘zaro yordam, hamdardlik, hamnafaslikdir.

Zero hamma vaqt jamiyatda yuz beradigan ijtimoiy voqeа va munosabatlarning mazmun-mohiyatini, ilmiy va tarixiy asosini izlashga intilgan Beruniydek qomusiy olim va mutafakkir o‘sha davrda dinda, shu jumladan islom dinida ma’naviy hayotning barcha sohalari mujassam ekanligiga ishonch hosil qilgan bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, diniy aqidaparastlik va murosasizlik asosida kelib chiquvchi adovat, nizo-janjal va qonli urushlar olim tomonidan qattiq qoralangan. U diniy aqida va ko‘rsatmalarga akl tarozisi nuqtai nazaridan yondashishni ta’kidlash bilan birga, boshqa dinlarga, ularning ko‘zlagan maqsad va ma’naviy mohiyatiga xolisona baho berishga da’vat qiladi.

Beruniy buyuk insonparvar sifatida bir xalqni boshqa xalqdan afzal ko‘rish va bu bilan ularni bir-biriga qarshi qo‘yish g‘oyasini qattiq qoralaydi. Masalan, u "O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida arablarni yeronliklardan ustun qo‘yishga uringan bir o‘rta asr tarixchisining fikrini qattiq qoralaydi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, boshqa millatlar vakillariga nisbatan xalqimizga xos hurmat-ehtirom, keng fe’llilik qadimiylar an’analarga ega bo‘lgan hamda buning nazariy-falsafiy asoslari Forobiy, Beruniy va boshqa ilk o‘rta asr mutafakkirlari asarlarida yorqin namoyon bo‘lgan. Prezident I.A.Karimov ta’kidlashicha: "Bu sof insoniy tuyg‘u, masalan, o‘zbeklarda shu qadar rivojlanganki, milliy-ma’naviy kengfe’llilik ularning umumiyligi madaniyati va ruhiyatining ajralmas qismiga aylanib ketgan"¹.

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.

Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.:O‘zbekiston. 1997.– B.80

O‘zbekistonda diniy ekstremizm va terrorchilikka qarshi mafkuraviy va g‘oyaviy kurash chora-tadbirlarining kompleks tizimini ishlab chiqishda yuqorida qayd etilgan qadriyatlarimizga tayanish, uni fuqarolarimiz ongiga singdirish o‘zining ijobiy samarasini berishi shubhasizdir. Bu omilning Prezident I. Karimov asarlarida nazariy asoslanganligi g‘oyatda muhim.

IV BOB. O‘zbekistonda terrorizmga qarshi kurash masalalari

4.1.Terrorizmga qarshi kurashda O‘zbekistonning o‘rni

“Mintaqamizda va butun dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab geosiyosiy sharoitda bizning zimmamizda mamlakatimizning xavfsizligi va barqarorligini ta’minlash, shu muqaddas zaminimizda hukm surayotgan tinch-osoyishta hayotni saqlash kabi biri-biridan mas’uliyatli va keng ko‘lamli bir qator vazifalar borki, yurtimizning, jondan aziz farzandlarimizning bugungi va yertangi kuni ana shu masalalarni qanchalik muvaffaqiyat bilan hal etishimizga bog‘liqdir”¹.

Xalqaro hamjamiyatda o‘zining munosib o‘rnini egallash uchun dadil harakat qilayotgan O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati mustaqillikning ilk kunlaridan xalqaro terrorizmning insoniyat va qolaversa, endigina mustaqillikni qo‘lga kiritib, demokratik rivojlanish sari kadam qo‘ygan millat va davlatlarning buguni hamda kelajagi uchun nechog‘lik xavfli ekanligini chuqur anglab etdi. Hozirgi kunda terrorizm eng xavfli va oqibatini oldindan ko‘ra bilish murakkab bo‘lgan jinoyatlar sirasiga kiradi. Terror ko‘لامi kengayib borayotgani va aql bovar qilmas shakllar olayotgani jahondagi eng xavotirli muammolardan biridir.

Afsuski, bunday tahdid va xavfdan hamda uning fojiali oqibatidan O‘zbekiston ham holi bo‘la olmadi. 80-yillarning so‘ngida, ya’ni mamlakatimizda mustaqillikka erishish uchun kurash olib borilayotgan davrlardayoq terrorchilik xurujlari u yoki bu ko‘lamda turli niqoblar ostida bo‘lib o‘tgan edi. Ammo mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin bu xurujlar kengroq va xavfiroq tus ola boshladi. Buning dalili sifatida 1999 yil 16 fevralda Toshkentda sodir etilgan portlashlar, terrorchi jangarilarning 2000 yil avgustida Bo‘stonliq, Sariosiyo tumanlari, Qirg‘izistonning Botkent tumaniga kirishga intilishlari, 2004 yil 28-29 aprel kunlari Toshkent shahri va Buxoro viloyatida amalga oshirilgan portlatishlarni keltirish mumkin. Bularning barchasi xalqaro terrorchilikka qarshi kurash O‘zbekiston milliy xavfsizligi va mustaqilligi uchun ham

¹ Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko‘tarilish sari 18-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – Б. 78.

o‘ta dolzARB ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Shuning uchun O‘zbekiston mustaqilligining birinchi kunidan boshlab respublikamizning milliy manfaatlari va milliy xavfsizligini himoya qilishda xalqaro terrorchilikka qarshi kurash mamlakat Prezidenti I.Karimov tomonidan ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab qo‘yildi. Mamlakatimiz Prezidenti xalqaro terrorizmning ko‘lami jahon miqyosida kengayib borayotganligidan tashvish bildirib, eng yirik anjumanlar minbaridan turib, jahon hamjamiyati, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti (YXHT) va boshqa xalqaro tashkilotlarni transmilliy jinoyatchilik ko‘rinishlaridan bo‘lmish xalqaro terrorchilikka qarshi qat’iyat bilan kurash olib borishga da’vat etdi. Jumladan, Prezident I.Karimov 1993 yil sentyabrda BMT Bosh Assambleyasi minbaridan turib O‘zbekiston Respublikasi xalqaro terrorchilik va uni keltirib chiqaruvchi sabab va ildizlarga qarshi izchil kurash olib borishini hamda bunda turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikka tayyor ekanligini barala aytdi. Uning ta’kidlashicha, bu, eng avvalo, nafaqat O‘zbekiston va Markaziy Osiyoda, balki jahonning hamma joyida barqarorlik va xavfsizlikni ta’minalash nuqtai nazaridan o‘ta dolzARB ahamiyat kasb etadi: "Demokratik islohotlar uchun jamiatning barqarorligi va davlatning xavfsizligi hayotiy zaruriyatdir. Bularsiz boshqa masalalarni amalda hal qilish mumkin emas. O‘zbekiston barcha mintaqalarda va, avvalo, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minalash uchun qat’iyat va izchillik bilan harakat qilib kelyapti"¹. Xalqaro xavfsizlik va barqarorlikka tahdid solayotgan omillar haqida to‘xtalar ekan, "O‘zbekiston ekstremizmni, terrorchilikni, har qanday ko‘rinishdagi diniy fanatizm va aqidaparastlikni qat’iyan qoralaydi"², - deb alohida ta’kidladi notiq.

O‘zbekiston o‘z milliy manfaatlarini, jahon xalqlari manfaatlari qatori, qatiyat bilan himoyalaydi va bu manfaatlarga zid bo‘lgan har qanday xavf-tahdidlarga qarshi xalqaro hamjamiyat bilan mushtarak holda kurash olib boradi. Yangi asr boshidagi xalqaro terrorchilik hozirgi davrda xalqaro xavfsizlikka, barqarorlikka tahdid solayotgan eng katta xavflardan biri ekanligidan dalolat beradi. Demak, O‘zbekiston davrimizning global muammolaridan bo‘lgan xalqaro terrorchilikka qarshi kurashda ham

¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. –Toshkent: O‘zbekiston, 1996.– B. 58.

² O’sha joyda – B. 52.

xalqaro hamjamiyat bilan hamkorliqda harakat qiladi va bu borada munosib o‘rin egallaydi.

1999 yili Istanbul Sammitida "Yevropada xavfsizlikni ta’minlash xartiyasi" muhokama qilindi. Unda so‘zga chiqqan Prezidentimiz I.Karimov bunday dedi: "...bugungi kunda xalqaro maydonda "sovuoq urush" ko‘rinishlari o‘rnini bir-biri bilan birlashib, tobora keng ko‘lamli va hujumkor mohiyat kasb etayotgan ashaddiy millatchilik va separatizm, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm kabi illatlar egallayotganini isbotlab o‘tirishning hojati yo‘q"¹, Demak, ikkinchi jahon urushidan keyin muxolif mafkuralar "ijodkorlari" va ularning siyosatdonlari tomonidan jahonning yetakchi mamlakatlarining ikki qarama-qarshi lagerlarga sun’iy ravishda ajratilishi natijasida vujudga kelgan "sovuoq urush" munosabati insoniyatga qanchalik dahshatli xavf tug‘dirgan bo‘lsa, hozirgi kunda tobora keng ko‘lamda avj olib borayotgan diniy ekstremizm va xalqaro terrorchilikning dahshatli xavfi ham shunday voqelikka aylanib bormoqda. Ushbu Sammitda Prezidentimiz tomonidan xalqaro terrorchilikka qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borish uchun, eng avvalo, uning moddiy asoslariga zarba berish zarurligi haqidagi fikr o‘rtaga tashlandi. Bunday takliflarni Prezidentimiz I.Karimov xalqaro hamjamiyat muhokamalariga ilgari ham bir necha bor havola etgan. Jumladan, u xalqaro terrorchilik xavfi muammolari, unga qarshi kurash usullari haqida muayyan takliflar va tashabbuslar bilan YUNESKO Ijroiya Kengashining 155-sessiyasidagi yakunlovchi nutqida (1998 yil 6 noyabr), Afg‘oniston bo‘yicha 6+2 guruhi Toshkent uchrashuvi ochilishi marosimidagi chiqishda (1999 yil 19 iyul), Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlarining Sammitida so‘zlagan nutqlarida (2001 yil iyun, 2003 yil iyun) O‘zbekiston davlati va hukumatining xalqaro terrorchilikka bo‘lgan munosabatini ochiq-oydin namoyon etdi².

O‘zbekiston Prezidenti va hukumatining BMT hamda turli xalqaro tashkilotlar anjumanlarida qilgan ma’ruzalari va bayonotlarining siyosiy hamda mafkuraviy jihatdan muhim ahamiyatga ega tomonlaridan biri shundaki, ularda O‘zbekiston davlati va hukumi tomonidan xalqaro terrorchilikka qarshi siyosiy, mafkuraviy, g‘oyaviy va iqtisodiy sohalarda kurash olib borish bo‘yicha aniq taklif va tashabbuslar o‘rtaga tashlandi.

¹Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, yerkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – B.83.

² Safarova N. – “Terrorizm” (tarixiy-falsafiy tahlil). – Toshkent: Noshir- 2009. 216 b.

Shu bilan birga bu taklif va tashabbuslarni amalga oshirishda O‘zbekiston ularning ma’lum jihatlarini o‘z zimmasiga olish tashabbusini taklif qildi. Buni Prezident I.A.Karimov 2003 yil iyun oyida Moskva shahrida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Sammitida bildirgan fikrlari bilan izohlash mumkin. Avvalo, Prezidentimiz o‘z nutqida xalqaro terrorizmga qarshi hamkorlikda kurash olib borish zarurligining ayrim nazariy va mafkuraviy masalalari ustida to‘xtalib bunday dedi: "Dunyo xalqaro terrorchilik, radikal ekstremizm, ayirmachilik va narkotrafikning tobora kengayib borayotgan ko‘lamlari, yadro quroli va ommaviy qirg‘in quroli tarqalishi xavfiga duch keldi. Xalqaro terrorchilik, radikal, tajovuzkor ekstremizm va ayirmachilik, narkotrafik va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, hech mubolag‘asiz, SHHT faoliyatining eng muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Aynan shu vazifalarni hal qilish uchun Mintaqaviy aksilterror markaz tuzilmoqda"¹.

Shu o‘rinda, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlari xalqaro terrorchilikka qarshi kurash masalasida qabul qilgan qarorlarida O‘zbekistonning xalqaro terrorchilikka qarshi qurashda tutgan o‘rni va rolini yaqqol ifodalovchi bir masalani ta’kidlash lozim.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Sammitida tashkilotning mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (markaz) qarorgohi Bishkekda bo‘lishi haqida gap borgandi, ammo keyinchalik bu fikr o‘zgardi. Markaz qarorgohini Toshkentga ko‘chirish borasida kelishib olindi. Albatta, bu qaror negizida ham O‘zbekistonga xorijdan tashlangan nigohlar va berilgan baholarning o‘z o‘rni bor, mamlakatimizning terrorchilikka qarshi kurashdagi amaliy sa’y-harakatlari, dadil tashabbuslarining natijasi desak, xato qilmagan bo‘lamiz.

O‘zbekistonning xalqaro terrorchilikka qarshi kurashdagi o‘rni va roli haqida gap ketganda, O‘zbekiston tashabbusi bilan tuzilgan "6+2 guruhi"ning sa’y-harakatlari bilan 2000 yil oktyabrda BMT va YXHT ishtirokida o‘tkazilgan "Markaziy Osiyodagi xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, giyohvand moddalar, uyushgan jinoyatchilik va Terrorizmga qarshi kurashishga birgalikda yondashish" mavzusidagi xalqaro Toshkent konfyerensiyasini ham alohida ko‘rsatib o‘tmoq zarur. Xalqaro minbarlardan turib: “..... Terrorizmga qarshi kurashish tashabbuslarini ilgari surgan O‘zbekiston bu ofatni daf qilishda hech

¹ Ошибка! Источник ссылки не найден.— В.275-279.

qachon chetda turmagan. Chunki O‘zbekiston terrorni qoralovchi chiroyli bayonotlar va balandparvoz so‘zlar bilan cheklanishni o‘ziga lozim ko‘rmaydi. Boz ustiga, terrorizmga qarshi kurashda davlatlarning hamkorlik qilishi ularning xohish-istiklariga bog‘liq bo‘lmay, xalqaro huquqda majburiyat darajasiga ko‘tarilgan. Bu jihatdan, O‘zbekiston Respublikasi butun jahon oldida o‘z majburiyatlarini to‘la-to‘kis ado etmoqda. O‘zbekistonning o‘zi ham terrorizmga qarshi kurashdan manfaatdordir. Qolaversa, O‘zbekistonning terrorizmga qarshi kurashdagi ishtirokidan Afg‘oniston ham manfaatdor. O‘zbek xalqi hech qachon jafokash afg‘on xalqining ayanchli taqdiriga befarq qaramagan”¹, degan fikrlar O‘zbekiston Prezidenti I.Karimov tomonidan o‘rtaga tashlangan edi.

2010 yili Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasida: “Mana, yon qo‘schnimiz Afg‘onistonda 30 yildan buyon davom etayotgan qurolli mojaroning hali-beri oxiri ko‘rinmayapti. Xalqimizda “Qo‘sning tinch – sen tinch” degan maqol bejiz aytilmagan. Qo‘sni mamlakat hududida mana shunday keskinlik saqlanib turar ekan, albatta, mintaqamizda tinchlik-barqarorlikka nisbatan tahdid ham saqlanib qolaveradi” deb ta’kidlagan edi.

Afg‘onistondagi murakkab vaziyatni hal etish bo‘yicha O‘zbekiston eng nufuzli xalqaro minbarlardan muhim amaliy tashabbuslarni doimiy ravishda bayon qilib kelmoqda. Ayniqsa, NATO/SEAP tashkilotining 2008 yil aprel oyida bo‘lib o‘tgan Buxarest Sammitida O‘zbekiston Prezidenti tomonidan afg‘on muammoini faqat harbiy yo‘l bilan yechib bo‘lmasligi haqidagi fikr birinchi bo‘lib o‘rtaga qo‘yilgan va bu mojaroni siyosiy yo‘l bilan hal etish maqsadida “6+2” muloqot guruhini “6+3” guruhiga aylantirish haqidagi taklif ham ilgari surilgan edi. Bu guruhga Afg‘oniston bilan qo‘sni bo‘lgan davlatlar, AQSH va Rossiya hamda NATO tashkilotining vakolatli vakillari kirishi nazarda tutiladi. O‘zbekistonning bu taklifi dunyo siyosiy jamoatchiligidida katta qiziqish uyg‘otgani ma’lum.

¹ Требин М.П. Терроризм в XXI веке. – Минск: Харвест, 2004.

Paxruddinov SH. Taraqqiyotga tahdid: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Akademiya, 2006. – B.114.

Shu bois O'zbekistonning aksilterror kurashdagi ishtiroki Afg'onistondagi harbiy harakatlarda tinch aholining kamroq zarar ko'rishiga, bu zaminda tezroq tinchlik o'rnatalishiga va eng muhimi, vayronalar ostida ko'milib yotgan Afg'onistonni tezroq tiklashga shubhasiz katta xizmat qildi.

Afsuski, bugungi kunda xalqaro terrorchilikka qarshi kurashga hamma davlatlar yoki siyosiy kuchlar ham xalqaro hamjamiyat bilan birgalikda jipslashgan holda izchil mavqeda turib, butun imkoniyat va kuchlarini safarbar qilishmoqda, deya olmaymiz. AQSHda sodir etilgan terrorchilik xurujlari munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bayonotida bunday deyilgan edi: "Endilikda terrorchilik insoniyat boshiga mislsiz kulfat keltiruvchi yovuz kuchga aylanib ketganini, dahshatli balo va ofat ekanini o'z hayotida ko'rib, uning ta'sirini sezib, unga qarshi birgalikda kurashish vaqtি-soati yetganini, bu kurashdan hech kim chetda turishi mumkin emasligini anglab yetdi"¹.

O'zbekistonning xalqaro terrorchilikka qarshi kurashdagi muhim o'rni va rolini yorqin ifodalovchi dalillardan biri mamlakatimizdagi bu kurashning huquqiy asosga qo'yilishidir. O'zbekistonda bu masalani hal etishga qaratilgan jinoiy-huquqiy me'yorlarni ishlab chiqish, birinchi navbatda, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini huquqiy jihatdan ta'minlash bilan bog'liq edi. Har uchala sub'ektning ham hayotiy muhim manfaatlariga bevosita daxldor bo'lgan jinoyatlar orasida terrorchilik alohida o'rin tutadi. Chunki terrorchilik xalqaro va milliy xavfsizlikka, eng avvalo, tinchlik va insoniyatga o'ta mudhish tahdiddir. Shuning uchun, xalqaro huquqiy tajribalarni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga "Tinchlikka va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar" deb ataluvchi alohida bob, shu jumladan "Terrorizm" (155) moddasi kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 155-moddasida terrorchilikning ikki xil ko'rinishi: xalqaro va mamlakat ichkarisidagi terrorchilik haqida so'z boradi. Bunda xalqaro tinchlik va insoniyatning xavfsizligi, davlatning tizimi (davlat hokimiyyati, davlat yoki jamoat arbobi yoxud hokimiyyat vakilining hayoti va sog'lig'i) jinoyatning ob'ekti hisoblanadi. Shu munosabat bilan aytish joizki, 1999 yil 16 fevralda

¹ Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.– B.104.

Toshkentda amalga oshirilgan terrorchilikning ob'ekti, asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hayoti edi. Chunonchi, Prezident I.Karimov "Ozodlik" radiosи muxbirи Sulton Oqqulanинг Toshkentda yuz bergen terrorchilik harakatlari O'zbekiston MDH doirasidagi kollektiv xavfsizlik shartnomasidan chiqishi to'g'risidagi fikrlar bilan bog'liq emasmikan, degan savoliga javob berib, jumladan, shunday degan edi: ".....bu terrorchilik harakati, eng avvalo, garchi bu iborani ishlatishni istamasam ham, aytishim kerakki, Prezidentni yo'q qilishga qaratilgan edi"¹.

Prezidentimizning ushbu bayonoti "Terrorizmga qarshi kurash" to'g'risidagi Qonun loyihasi ishlab chiqilishiga turki bo'ldi. Ushbu Qonun loyihasi bir qancha xalqaro tashkilotlarning ham e'tiborini o'ziga qaratdi. O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonunini amalda joriy etish shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Terrorchilikka qarshi milliy konsepsiya bunday dasturning nazariy assosi bo'lib xizmat qildi. Dastur va konsepsiya, o'z navbatida, terrorchilik bilan kurashish va milliy xavfsizlikni ta'minlash sohasida yagona davlat choralarini tizimini ishlab chiqishga asos bo'ldi. "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida" gi Qonunni amalda joriy etishdagi uzlucksizlik va mutanosiblik ana shundadir. Shuni ham aytib o'tish joizki, qonun loyihasi Oliy Majlis sessiyasida birinchi o'qishda ko'rib chiqilgandan so'ng umumxalq muhokamasiga havola etildi va unga ijobiy fikr bildirildi. Shu bilan birga "Xalq so'zi" va "Narodnoe slovo" gazetalari tahririyatiga, shuningdek, bevosita Oliy Majlisga ko'pgina taklif va tavsiyalar yo'llandi. Qonun ana shu fikr-mulohazalarni, taklif va tavsiyalarni e'tiborga olgan holda qabul qilindi. Demak, 2000-yil 15- dekabrda qabul qilingan "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida" gi Qonun, eng avvalo, xalqimizning yerkin xohish-irodasi bilan, ikkinchi tomonidan, oly darajadagi xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan xalqaro huquq me'yorlariga mos keladigan tamoyillarni inobatga olgan holda qabul qilingan.

O'zbekistonda xalqaro terrorchilikka qarshi kurashning huquqiy asoslarini yaratish nafaqat terrorchilikka qarshi kurashning huquqiy

¹Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – Б.341.

asoslarini, balki uning ma'naviy asoslarini ham mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Zero o'z maqsadlariga erishish yo'lida hech qanday g'ayriinsoniy yo'ldan tap tortmaydigan ekstremistlar o'zlarini "ezgu maqsadlar" sohiblari deb e'lon qilishadi. Ular o'z targ'ibotiga ulkan maqsadlarga faqat hokisorlik orqali erishiladi, degan soxta fikrni tiqishtirishdan or ham qilishmaydi. Ular tomonidan amalga oshirilayotgan terrorchilik harakatlari esa butunlay boshqa narsadan dalolat beradi. Ularda aynan shu ezgu maqsadlar etishmaydi. "Ular o'z siyosiy manfaatlari hamda xo'jayinlarining amrini bekamu ko'st ado etish yo'lida qadimdan odat tusiga kirib, bir necha bor sinovdan o'tgan yo'lni, ya'ni o'z siyosiy maqsadlari yo'lida yo'qsillar psixologiyasiga ta'sir qilish singari jirkanch siyosiy uslubni qo'llamoqdalar"¹.

Jahon hamjamiyati hayotida islom qadriyatlarini tiklash bayrog'i ostida ro'y berayottan hodisalar g'oyat xilma-xil, ko'p qirrali, ba'zan ziddiyatli va, hatto, qarama-qarshi qutblidir. "Inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olayotgan hozirgi davrda e'tiqod umumiyligiga asoslangan holda yakka mafkura hukmronligini ta'minlashga harakat qilayotgan kuchlar ham bor. Xususan, islom dinini qurol qilib olgan aqidaparastlar ijtimoiy, milliy xususiyati, qaysi davlatga mansubligidan qat'iy nazar, barcha musulmonlarning ma'naviy birligi haqidagi tasavvurlarga tayanib, ularning yagona xalifalik ostida, sodda qilib aytganda, diniy asosda siyosiy birlashuvi g'oyasini ilgari suradilar. Afsuski, hozirgi zamon tarixida ana shu o'ta keskin ko'rinishlar jiddiy mojarolarni, ziddiyatlarni keltirib chiqarishi, barqarorlik va xavfsizlikka taxdid solishi mumkinligi insoniyatni tashvishlantirmoqda.

Davlati va uning rahbariyati mamlakatimiz hamda jahon hamjamiyati osoyishtaligiga va barqaror rivojlanishiga qarshi qaratilgan xalqaro terrorchilik bugun har qachongidan ham xavfli tus kasb etganini e'tiborga olgan holda, shunchaki siyosiy bayonotlar berish, hamdardlik bildirish, balandparvoz va'dalar berish bilangina cheklanib qolmasdan, muhim taklif va chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqdi hamda bu borada barcha xayrixoh kuchlar va davlatlar bilan hamkorlikka tayyor ekanligini amalda isbotladi. Ayniqsa, qo'shni davlatlar bilan hamkorlikka alohida e'tibor qaratilayotganligi o'z-o'zidan ravshan. Tinchlik va barqarorlikka,

¹ Ubaydullaev U. Xalqaro Terrorizm: tarixi va zamonaviy muammolari. – Toshkent: Univyersitet, 2002.– B. 121.

millatlararo totuvlik va mintaqamiz xalqlari hamda davlatlarining an'anaviy do'stligiga, hamjihatligiga tahdid soluvchi bu jiddiy xavfni bartaraf etish bo'yicha qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlikda zarur chora-tadbirlar ko'rish bugungi kunda eng dolzarb vazifadir.

To'g'ri, boshqa uzoq va yaqin davlatlar bilan ham hamkorlik zarur, albatta. Ammo tashqi siyosiy va milliy manfaatlarni ta'minlashda zamon va makon zayli tufayli hududiy tutash bo'lgan qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlik qilish, o'zaro ishonch asosida ish yuritish har doim katta samara berib kelgan hamda alohida e'tiborga molik masala sifatida yetakchi o'rinda turgan.

Davlatimiz tashqi siyosiy strategiyasini tahlil qilar ekanmiz, Prezidentimizning ana shu jihatga ustuvor va jiddiy ahamiyat berib kelganligining guvohi bo'lamic. Jumladan, MDH davlatlari boshliqlarining oliy darajadagi barcha Sammitlarida, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvlari, Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar boshliqlarining Dushanbe va Sankt-Petyerburgdagi uchrashuvlari chog'ida va, qolaversa, jahon ommaviy axborot vositalari vakillari uchun uyushtirilgan matbuot konfyerensiyalarida diniy ekstremizm hamda xalqaro terrorizm bir markazdan boshqarilayotganligi, mintaqalari, kerak bo'lsa, bu borada tarixiy yakdillik ko'rsatishlari va, eng zaruri, bu ofatni birlashgan holda daf etish borasida zudlik bilan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozimligi Prezidentimiz tomonidan qayta-qayta ta'kidlangan.

Shunday qilib, ijtimoiy-siyosiy va geosiyosiy vaziyatdan kelib chiqqan xolda O'zbekiston Respublikasi rahbariyati, birinchi navbatda, davlat boshlig'i I.A. Karimov bu muammoning echimini zudlik bilan belgilash bilan birga, bu borada jahon hamjamiyati, nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilish siyosatini olib borishga alohida urg'u berib kelmoqda.

Terrorizmning ma'naviy zarari shundaki, u odamlarni jismoniy yo'q qilish bilan birga, aholining ko'pchilik qismini ruhiy karaxtlik, falajlik holatiga solib qo'yishi mumkin. Qo'rquv, dahshat, sarosima kabi histuyg'ular natijasida odamlar hamma narsadan hadiksiraydigan, shubhalanadigan holatga tushib qolishlari, o'zlariga bo'lgan ishonchni yo'qotishlari mumkin. Yalpi qirg'in quroli juda ko'pchilikning jismonan

qurban bo‘lishi nuqtai nazaridan qanchalik dahshatli bo‘lsa, odamlarni ruhan falaj qilishda terrorchilik shunday dahshatli quroldir.

Shu ma’noda inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olayotgan hozirgi davrda, xalqaro terrorchilikka qarshi kurashda quyidagi muhim vazifalarga alohida e’tibor qaratmoq lozim.

- Bu mudhish ofatning butun fojiali oqibatini keng xalq ommasiga haqqoniy yetkazish. O‘zbekiston fuqarolari, o‘zлari xalqaro terrorchilikka qarshi kurashga mafkuraviy va ma’naviy-ma’rifiy jihatdan tayyor bo‘lmasalar, unga qarshi ma’muriy va huquqiy vositalar bilan kurash ko‘zlangan samarani bermasligini anglab olishlari zarur.
- Bugungi kunda diniy ekstremizm, aqidaparastlik va jahoning turli mamlakatlarida sodir bo‘layotgan terrorchilik harakatlari din ham, millat ham tanlamasligini, butun insoniyatning dushmani ekanligini va unga qarshi kurashish nafaqat jahon hamjamiyatining, balki bevosita O‘zbekiston davlati va xalqining ham muhim vazifasi va burchi ekanligini fuqarolarimiz ongiga singdirmoq zarur.
- Xalqaro terrorchilik davrning tom ma’noda milliy mustaqillik, davlat suvereniteti hamda davlatimizning demokratik taraqqiyoti yo‘lidagi strategik maqsadlariga zid bo‘lgan davrning eng salbiy unsurlaridan biri ekanligini har bir fuqaro ongu shuuriga yetkazmoq kerak.
- Shuning uchun ham O‘zbekistonda xalqaro terrorchilikka qarshi kurashning mafkuraviy va ma’naviy vazifalaridan biri - uning uyushgan jinoyatchilik bilan uzviy va chambarchas bog‘liqligini fosh qilish hamda keng xalq ommasi ongiga yetkazishdir.
- Bu vazifani amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari hamda tashviqot va targ‘ibotning keng tarmoqlaridan samarali foydalangan holda, uning siyosiy, g‘oyaviy shiorlarini mafkuraviy jihatdan fosh qilish, bu mudhish harakat qanday moliyaviy asoslarga tayanishidan tortib, qanday taktik usullarni qo‘llashigacha fosh qilish zarur.

Shuni ham ta’kidlash joizki, O‘zbekiston davlati o‘zining dinga bo‘lgan munosabatida amal qilishi zarur bo‘lgan tamoyillarni O‘zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasi mezonlaridan kelib chiqqan holdagina belgilamay, balki ularni Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro mezonlarga ham muvofiqlashtirgan. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 61-moddasida "Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi"¹, - deyilgan.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro aktning 18-moddasi 3-bandida esa bunday deyiladi: "Din yoki e’tiqodga sig‘inish yerkiga faqat qonun bilan belgilangan va jamoat xavf-sizligini, tartibini, salomatligi va axloqini saqlash uchun, shuningdek boshqa shaxslarning asosiy huquqlari va yerkini muhofaza etish uchun zarur bo‘lgan cheklashlar bilangina dahl qilinishi mumkin".

Shunday ekan, O‘zbekistonda xalqaro terrorchilik va turli diniy ekstremistik guruhlarga qarshi olib borilayotgan huquqiy hamda ma’muriy kurash chora-tadbirlari va vositalari to‘liq holda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro huquq mezonlariga mos holda amalga oshirilmoqda, deb ishonch bilan ta’kidlashimiz mumkin. Ma’naviy va mafkuraviy sohada olib borilayotgan kurash vositalari va mohiyatiga kelsak, uning asosiy maqsad va tamoyili Prezident I.A.Karimovning ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida qilgan ma’ruzasining "Vatanimizning tinchligi va osoyishtaligi o‘z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bu nomning mohiyatini ochib beruvchi matnida o‘z ifodasini yaqqol topgan. Respublikamiz aholisini terrorchilikka qarshi kurashda ruhan qo’llab-quvvatlash, ishonchlarini mustahkamlash, ma’naviy safarbar qilish borasidagi sa’y-harakatlar, ko‘rilayotgan chora-tadbirlar diqqatga sazovordir. Ular xalqimizda terrorchilarga nisbatan nafrat tuyg‘ularini kuchaytirishgagina emas, shu bilan birga o‘z kuch-qudratiga, irodasiga, iymon-e’tiqodiga va, nihoyat, vatanimizning salohiyatiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Haqiqatan ham, mustaqillikka erishgandan keyingi yillarda O‘zbekistonda sodir bo‘lgan qator terrorchilik xurujlari va tajovuzlariga qarshi kurash olib borishda, avvalo, xalqimizning mustahkam iymon-

¹ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – B.13.

e'tiqodi, irodasi, ruhiy safarbarligi, ona-Vatanga bo'lgan cheksiz sadoqati hal qiluvchi omil bo'ldi.

Terrorizmning tom ma'noda milliy mustaqillik, davlat suvereniteti hamda har bir mamlakatning demokratik taraqqiyot yo'lidagi strategik maqsadlariga zid hodisa, davrning eng salbiy unsurlaridan biri ekanligini chuqur anglab etgan mamlakat har bir fuqarosining kelajakka bo'lgan ishonchi yanada oshadi. O'ziga xos geosiyosiy, geotarixiy mavqega ega bo'lgan O'zbekistonda islom dinini bayroq qilib, aslida esa bizning ulkan ma'naviy tayanchimizni obro'sizlantirayotgan terrorchilar birgina biz uchun emas, balki dunyodagi barcha xalqlar uchun o'ta xavfli tahdid ekanligi tobora oydinlashib bormokda. Binobarin, Terrorizmning mintaqamizda, kerak bo'lsa, sarhadlarimiz atrofida ana shunday yo'naliш kasb etayotganligini anglab etish, unga munosabatda tarixiy-milliy va hududiy xususiyatlardan kelib chiqish, unga nisbatan safarbarlik, tayyorgarlik va aniq chora-tadbirlarni chuqur o'ylab olib borish taqozo etilmoqda.

Albatta, boshqa mamlakatlarda ham islom dini niqobi ostidagi terrorchilik xavfi mavjud. Undan biron-bir mamlakat to'la kafolatlangan, deb aytib bo'lmaydi. Lekin mintaqamizda harakatda bo'lgan terrorchilar xalqimiz asrlar osha qalbida saqlab kelayotgan, uning shuurida chuqur ma'rifiy iz qoldirgan islom diniga, uning demokratik mazhabi bo'lmish hanafiya mazhabiga zo'r berib g'oyaviy ta'sir ko'rsatishga intilishi ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi siyosiy rahbariyati, birinchi navbatda, davlat boshlig'i I.A.Karimov bosh yo'naliшlardan biri sifatida bu muammoning echimini belgilash bilan birga, bu borada jahon hamjamiyati, nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilish va ularning ko'magini hisobga olgan holda siyosat olib borishga alohida urg'u berib kelmokda.

2001 yil 11 sentyabr voqealari munosabati bilan bergen bayonotida Prezident I.A.Karimov qat'iy ishonch bilan shunday deb ta'kidlagan edi: "Ishonchim komilki, iyemoni butun, irodasi baquvvat, buyuk ajdodlarimiz ruhidan kuch va madad olib yashaydigan xalqimiz terrorchi guruhlarga qarshi dunyodagi barcha sof niyatli kuchlar bilan birlashib, o'zining azmu shijoati va qat'iyatini namoyon etib, terrorizm degan jirkanch illatni dunyo

xalqlari hayotidan butunlay o‘chirib tashlash ishiga o‘zining munosib hissasini qo‘sadi”¹.

Islom dini asrlar davomida hayot falsafasi bo‘lganini, u jamiyat a’zolarini eng yuksak insoniy fazilatlar egasi qilib tarbiyalashni, insonparvarlik, xalqparvarlik, adolat, halollik, boshqa millatlar, dinlarga ehtirom, oljanob axloqni targ‘ib qilishini yaxshi anglab yetmoq, islom tarixidan xabardor bo‘lib vatandosh ulamolarimizning islomiy madaniyat taraqqiyotiga qo‘sghan buyuk hissasini har bir fuqaromiz ongiga singdirmoq yuqoridagi vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishda o‘z samarasini berishi shubhasizdir.

O‘zbekistonda xalqaro Terrorizmga qarshi kurash masalalari yoritilgan mazkur bobdag'i fikr-mulohazalarimizni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin, deb hisoblaymiz.

- Diniy ekstremizm asosida vujudga kelgan Terrorizmni O‘zbekistonga kirib kelishining ijtimoiy - siyosiy va mafkuraviy sabablaridan biri, eng avvalo, bolshevistik mafkuraning dinga va dindorlarga nisbatan beshafqat qatag‘on siyosati bo‘ldi. Buning natijasida xalqimiz islom dinining haqiqiy mohiyatidan ma’lum muddat bebahra qoldi.

- Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin, bir tomondan, diniy e’tiqod erkinligi amalda ta’mindan, ikkinchi tomondan, vujudga kelgan mafkuraviy bo‘shliqdan aqidaparast, ekstremistik guruhlar g‘arazli maqsadlari yo‘lida foydalandilar.

- Murakkab o‘tish davri jarayonlarida islom dinining qarama-qarshi vazifalarni o‘tashi, ya’ni, bir tomondan, ommani yuksak ma’naviylik va axloqiylik ruhida tarbiyalashdagi rolining oshishi, ikkinchi tomondan, islom dinidan siyosiy kurash uchun foydalanish, omma siyosiy ongiga ta’sir etish omiliga aylanishi ham diniy ekstremizm va Terrorizmning O‘zbekistonga kirib kelishining ijtimoiy-siyosiy va g‘oyaviy sabablaridan bo‘ldi.

- O‘zbekistonga diniy ekstremistik va terrorchilik harakatlari va tashkilotlari kirib kelishining tashqi sabablaridan biri - butun islom dunyosida faoliyat ko‘rsatayotgan turli rasmiy va norasmiy harakatlarning mamlakatimizda islom dini tutgan maqomni, uning boshqa dinlarga

¹ Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – B. 124.

munosabatini belgilashga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishga intilishlari, shu maqsadda ularni moddiy va g'oyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashlaridir.

- O'zbekistonga diniy ekstremizm kirib kelishining tashqi g'oyaviy sabablaridan yana biri - Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek - "sharq falsafasining bir qismi bo'lgan islam sivilizatsiyasining fazilatlarini chuqur tushunishni istamaslik kayfiyati..."¹. Bunday holatga qarshi kurash jarayoni esa siyosiy va mafkuraviy jihatdan noto'g'ri, ma'naviy jihatdan nosog'lom g'oyalardan foydalanishga olib kelishi mumkin.

- Xalqaro terrorchilikning jahon miqyosida kengayib borayotganligi bois O'zbekistonda ham unga qarshi izchil kurash olib borish mamlakatimiz tashqi va ichki siyosatining ustuvor yo'naliшlaridan biriga aylandi.

- O'zbekistonda diniy ekstremizm va Terrorizmga qarshi mafkuraviy hamda g'oyaviy kurash chora-tadbirlarining kompleks tizimini ishlab chiqishda ma'naviy qadriyatlarimizga tayanish va uni fuqarolarimiz ongiga singdirish o'zining ijebiy samarasini berishi shubhasizdir.

¹Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.:O'zbekiston. 1997.– B.48.

4.2. O‘zbekistonning BMT narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkiloti bilan o‘zaro hamkorlik munosabatlari

Xalqaro konvensiya va BMTning rezolyusiyalariga binoan, BMTning narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkilotining asosiy maqsadlari – unga a’zo davlatlarda narkotik moddalarni nazorat qilish, transmilliy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi konvensiyalarning bajarilishiga ko‘maklashish, shuningdek jinoiy sud jarayonlarini isloh qilish, terrorizm va odam savdosi kabi illatlarning oldini olishdan iborat¹.

BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkilotining mintaqaviy vakolatxonasi Markaziy Osiyo davlatlariga noqonuniy giyohvand moddalarining savdosi va iste’molini bekor qilish, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, shuningdek terrorizmga aloqador jinoyatlarga jazo berish va terrorizm haqida ogohlilikchaqirish sohasida ko‘maklashib kelmoqda. Ushbu tashkilotning mintaqaviy vakolatxonasi Toshkent shahrida joylashgan bo‘lib, uning mintaqaviy ofislari Bishkek (Qirg‘iziston), Dushanbe (Tojikiston), Ashxobod (Turkmaniston), Ostona va Olma-Ota (Qozog‘iston), shuningdek Boku (Ozarbayjon) shaharlarida ham mavjuddir.

Bu borada O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynab kelmoqda. BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkilotining mintaqaviy vakolatxonasi noqonuniy giyohvand moddalar aylanishi, jinoyatchilik, giyohvand moddalar savdosi, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashga yo‘naltirilgan loyihalarni amalga oshirish yo‘li bilan aholi, ayniqsa yoshlar salomatligini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha masalalarni hal etishda O‘zbekistonda 1993-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda.

Hozirgi kunda ushbu tashkilot bilan hamkorlikda quyidagi qo‘shma loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda:

1.“Giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va ularning prekursorlarining qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lishiga qarshi kurashish bo‘yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot muvofiqlashtirish markazi (CARICC)ni tashkil etish” mintaqaviy loyihasi (loyihaning

¹www.mfa.uz

umumiyligi – 15,4 mln. AQSH dollarini tashkil etadi). Loyiha doirasida CARICC ni tashkil etish bo‘yicha shartnomaning ishtirokchidavlatlari milliy koordinatorlari Kengashining bir qancha yig‘ilishlari o‘tkazilib, faoliyatning dolzarb masalalari muntazam ko‘rib chiqilmoqda.

2. “Treatment” – narkotik moddalarga qaramlikning oldini olish va uning sog‘liq uchun salbiy oqibatlari” mintaqaviy loyihasi(loyihaning umumiyligi – 1 mln. 490 ming AQSH dollarini tashkil etadi). Sog‘liqni saqlash, Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirliklarining 7 nafar mutaxassislari loyiha doirasida 2009 yil 24 avgustdan 17 sentyabrgacha Toshkent shahrida o‘tkazilgan mintaqaviy treninglarda o‘qitildi. 2010-2011 yillarda loyihami amalga oshirish dasturiga muvofiq o‘qitish treninglari davom ettirildi.

3. “Oilaviy hayot ko‘nikmalarini shakllantirish dasturi vositasida yoshlari o‘rtasida psixoaktiv moddalarning noqonuniy iste’mol qilinishi, OIV/OITS va jinoyatchilikning oldini olish” mintaqaviy loyihasi. O‘zbekiston ushbu loyihamda 2017-yilga qadar ishtirok etadi. Hozirgi kunda ushbu loyiha doirasida Toshkent shahri va Respublikaning uch viloyatida maktab yoshigacha bo‘lgan bolalar uchun “Oila va maktab birgalikda” dasturi amalga oshirilmoqda.

4. “Chegara punktlarini mustahkamlash orqali Afg‘onistonning shimoliy marshrutlari orqali o‘tuvchi noqonuniy giyohvand moddalarning aylanishiga qarshi kurashish” Mintaqaviy loyihasi (loyihaning umumiyligi – 1,3 mln. AQSH dollarni tashkil etadi).

O‘zbekiston Respublikasiga kiruvchi va tranzit orqali MDH mamlakatlariga o‘tuvchi shaxslar va transport vositalarining asosiy oqimi o‘zbek-tojik chegarasidagi «Oybek-avtoyo‘l» o‘tkazuv punkti orqali amalga oshirilishini hisobga olingan holda, asosiy texnik hamkorlik oqimi ushbu nazorat-o‘tkazuv punktiga yo‘naltirilgan.

Bundan tashqari, 2011 yilda noqonuniy giyohvand moddalarga qarshi kurash sohasida yuqori natijalarga erishish bo‘yicha mintaqadavlatlari uchun kompleks tavsiyaviy hujjat hisoblangan 2011-2015 yillar uchun mo‘ljallangan Afg‘oniston va unga qo‘shti davlatlarda narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashdagi xatti-harakatlarni qo‘llab-quvvatlash mintaqaviy dasturi yo‘lga qo‘yildi. Ushbu dasturning asosiy maqsadlaridan biri mintaqada mamlakatlarining narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishdagi salohiyatini

kuchaytirish, shuningdek xalqaro operatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus manbalar ajratishdan iborat. Mazkur dastur loyihasining umumiyligi 60 mln. AQSH dollarini tashkil qiladi. Asosiy donormamlakatlar Yaponiya, Rossiya, Shvetsiya, Norvegiya va Italiya hisoblanadi. Dastur ishtirokchilari: Afg‘oniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Eron, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston.

5. “BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkiloti (UNODC) va Butunjahon bojaxona tashkilotining kontener tashilmalarini nazorat qilish bo‘yish global dasturi”. Kontener tashilmalarini nazorat qilish bo‘yicha global dastur (GPCT) 2004 yilda BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkiloti (UNODC) va Butunjahon bojaxona tashkiloti tomonidan bojaxona va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini birlashtirish orqali bu kabi jinoyatchilik faoliyatiga chek qo‘yish maqsadida ishlab chiqilgan. Faqatgina 2013-yilda 23 tonna kokain, 6 tonna kannabis, 1,2 tonna heroin, 60 tonna tramadola va 725 kg miqdorda fil suyaklari ushlab qolindi. 119 ta kontenerda kontrafakt mahsulotlar aniqlandi. O‘zining amaliyatga tatbiq etilishidan so‘ng GPCT port nazorati bo‘yicha 30 dan ortiq tezkor bo‘limmalarni tashkil qildi, bu esa o‘z navbatida, narkotik va boshqa taqiqlangan mahsulotlar, xususan, 100 tonna kokain, 3 mln. Tonna heroin, 60 tonna kannabis va taqiqlangan narkotik moddalarni ishlab chiqarishda qo‘llaniluvchi 1273 tonna miqdoridagi kimyoviy modda-prekursorlar, shuningdek, sigaretalar, avtomobillar, dori vositalari, elektron chiqindilar, xavfli materiallar va yovvoyi hayvonlar kabi taqiqlangan tovarlar va narkotik moddalarni aniqlash va musodara qilishning sezilarli darajada oshishiga sabab bo‘ldi.

6. “Markaziy Osiyo mintaqasi va Ozarbayjondagi prekursorlar ustidan nazorat qilish” Mintaqaviy loyihasi (loyihaning umumiyligi 6 mln. AQSH dollarini tashkil etadi). Ushbu loyiha doirasida 30 dan ortiq treninglar, turli uchrashuvlar o‘tkazilgan bo‘lib, ularda mamlakatimizning turli tashkilotlaridan 220 dan ortiq vakillar ishtirok etdilar. Shuningdek, loyiha huquq-tartibot organlarining Afg‘onistonga kimyoviy prekursorlar noqonuniy olib o‘tilishini oldini olish bo‘yicha mintaqaviy va milliy operatsiyalarni moliyalashtirdi.

7. “Markaziy Osiyo va Afg‘oniston Islom Respublikasi davlatlari huquqni muhofaza qilish organlari shaxsiy tarkibining narkotik moddalarga qarshi kurash sohasidagi malakasini oshirish”, Rossiya-NATO

Kengashi Mintaqaviy loyihasi (loyihaning umumiyligi – 2.140.000 AQSH dollarini tashkil etadi). Loyiha doirasida narkotik moddalar noqonuniy aylanishiga qarshi kurash bo‘yicha bo‘linmalar xodimlarini tayyorlashda Domodedovo xalqaro idoralararo markazida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo‘mitasi Oliy harbiy bojxona institutida, Bishkekda, Ashxobodda, Anqaradagi TADOK Akademiyasida 28 ta trening o‘tkazilib, ularda O‘zbekiston Respublikasining huquqtartibot va boshqa mas’ul organlarining 144 nafar vakillari ishtirok etdilar.

4.3. Mintaqa barqarorligini ta’minlashdagi muhim qadam

Mustaqillik yillarida global xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash borasida O‘zbekiston mamlakati sa’y-harakatlarining muhim jihat - tashqi siyosiy tashabbuskorlik bo‘ldi.

Bunday tashabbusning amaliy ifodalaridan biri sifatida 2007 yil 2 aprelda imzolangan «Markaziy Osiyoda yadro quroldidan holi zona to‘g‘risidagi shartnomani (Semipalatinsk 2006 yil 8 sentyabr) ratifikatsiya qilish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining bugungi kundagi ahamiyati ayniqsa beqiyos. O‘zbekistonning mustaqillik yillari qo‘lga kiritgan muhim natijalari sifatida quyidagi ma’lumotlarni esga olish joiz¹.

Ma’lumki, 40 yildan ortiq vaqt mobaynida Qozog‘istonning Semipalatinsk hududidagi sobiq Ittifoqning Milliy yadroviy markazida 458 marta yadroviy portlashlar amalga oshirilgan, oqibatda 1,7 mln.insonlarga bevosita ziyon yetkazilgan. O‘scha paytlarda bu poligonda 60 ga yaqin ilmiy-tadqiqot instituti va laboratoriylar xizmat qilar edi. Har bir o‘tkazilgan yadroviy sinov oqibatida poligon atrofidagi tuproqlar va unga qo‘shni hududlarning tabiatini borgan sari radioaktiv zararlanib, odamlar ham nurlanish kasalligiga chalinib boravyergan. Jumladan, 1953 yilning avgustida o‘tkazilgan yadroviy sinov oqibatida 20 mingdan ortiq kishi nurlanishning kuchli dozasini olgan. Ular har bir sinov paytida osmonda ko‘rinadigan yarqirashni «Quyosh tutilishi», deb tasavvur qilishgan. Ammo, osmondagи bu yarqirash quyosh yarqirashidan bir necha barobar yuqori va yorqinroq kechgan.

¹ Nigmatov I. Mintaqa barqarorligi – taraqqiyot kafolati (yohud uni ta’minlashda O‘zbekistonning tashabbuskorligi xususida) // Ma’rifat, 2011 yil, 3 sentabr.

Afsuski, bunday radioaktiv yarqirashlar bir necha ming gradus haroratga ega bo‘lib, hosil bo‘lgan bulut D.I. Mendeleevning davriy sistemasidagi 35 dan ortiq elementlarning aktiv yadrolaridan va 80 dan ortiq izotop zarrachalaridan tashkil topgan. Bu zarrachalar tuproqqa, suvga, moddiy boyliklarga, atrof-muhitga tushganda katta radioaktiv ifloslanishga olib kelishi, tabiiy.

O‘sha paytda Semipalatinsk viloyatidagi onkologik kasallanishlarning darajasi Qozog‘istonning boshqa hududlaridagi aholiga nisbatan 2-2,5 barobar yuqori, ruhiy kasallanishlar darajasi - 4 marta, bolalar o‘limi esa 2 barobardan ortiqni tashkil etgan. Mutaxassislarning tekshirib baholashlaricha, aynan yadroviy portlashlar poligoni atrofidagi ekologik halokat hududi 300 ming kv/kilometrni tashkil etib, zarar ko‘rgan hosildor yerkarning mahsuldorligini tiklash uchun kamida 300 yil kerak bo‘lishi isbotlangan. Xuddi shunday ayanchli holat AQSH ning 1945 yilda yaponiyaning Nagasaki va Xirosima shaharlariga tashlagan yadroviy qurollari oqibatida ham kuzatilib, uni hanuzgacha butun dunyo aholisi eslab yuradi.

Bunday mash‘um tarixiy saboq mintaqamizning ommaviy qirg‘in vositalaridan holi bo‘lishini ta‘minlash O‘zbekiston uchun dolzarb va o‘ta muhim vazifa ekanligini anglagan holda davlatimiz rahbari I. Karimov 1993 yil 28 sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida so‘zga chiqib, tarixda ilk bor dunyo hamjamiyatining e’tiborini mintaqada vujudga kelgan o‘ta murakkab vaziyatga qaratgani bejiz emasdi. Unda mintaqada tinchlikka, osoyishta hayotga tahdid soluvchi omillar majmuasi mavjudligi ko‘rsatilib, ayni vaqtda hududda yadroviy qurol to‘planishi jiddiy xavotir uyg‘otayotganligi qayd etildi. Shu bois, yurtboshimiz O‘zbekiston yadroviy qurolni batamom yo‘q qilish tarafdori ekanligini ta’kidlab, Markaziy Osiyonи bu quroldan holi hudud, deb e’lon qilish tashabbusini ilgari surgan edilar. Chunki bu davrlarda Markaziy Osiyo hududidagi Qozog‘iston yadroviy qurol zaxiralari to‘planishi bo‘yicha dunyoda to‘rtinchi o‘rinda turardi. Bundan tashqari, mintaqada yadroviy qurolni sinash bo‘yicha eng yirik – Semipalatinsk poligoni ancha yillardan beri ishlatilib kelindi.

Prezidentimizning Markaziy Osiyonи yadroviy quroldan holi hudud qilish to‘g‘risidagi tashabbusini Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlardan tashqari, yadroviy qurolga rasman ega bo‘lgan davlatlar -

Xitoy, Rossiya, Buyuk Britaniya, AQSH va Fransiya davlatlari ham qo'llab-quvvatlab, tegishli tuzilgan shartnomani ma'qulladilar. Bu shartnomada ishtirok etuvchi mamlakatlarga nisbatan yadroviy quollar yoki boshqa turdag'i yadroviy portlovchi qurilmalarni ishlatmaslik majburiyatini yukladi. Shuningdek, ushbu shartnoma Markaziy Osiyoda yadroviy sinovlarni to'xtatish, o'ta xavfli yadroviy chiqindilarning ko'milishiga barham berish hamda mintaqadagi ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan bo'lib, u mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur shartnomaning yana bir ijobiy tomoni terrorchilarning zamonaviy qirg'in quollarini qo'lga kiritish yo'lida Markaziy Osiyodagi imkoniyatlardan foydalanishiga qarshi muhim to'siq yaratilganligidir.

Shunday qilib, yurtboshimizning sa'y-harakatlari natijasida 2006 yil 8 sentyabrda Semipalatinskda «Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona to'g'risida»gi shartnoma imzolanganligi muhim voqeа bo'ldi.

Ushbu shartnomaning imzolanishi xususida BMT ning o'sha davrdagi Bosh kotibi Kofi Annan: «Bu shartnoma yadro quroli tarqatmaslikning global tartibini kuchaytiradi, yadro qurolidan holi dunyoga erishish yo'lida xalqaro sa'y-harakatlarni birlashtirdi, global va mintaqaviy tinchlik va xavfsizlikni sezilarli darajada mustahkamladi», deb ta'kidlagan edi.

Xulosa qilib aytganda, bundan buyon yadroviy quollarni tarqatmaslik, ularning sinalishiga yo'l qo'ymaslik, yurtimizda oltindan qimmat va beba ho bo'lgan tinchlik degan buyuk ne'matni asrab-avaylash nafaqat bizning, balki butun jahon ahlining oldida turgan eng global vazifalardan biridir. Bu vazifalarga javoban «Markaziy Osiyoda yadro qurolidan holi zona to'g'risida» gi shartnomanini ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni Vatanimizning tub manfaatlariga to'la-to'kis javob beradi va milliy, mintaqaviy hamda xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga beqiyos xizmat qiladi.

O'zbekistonning bunday tashqi siyosiy tashabbuskorligi, shubhasiz mintaqada global xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda davlatimizning tutgan o'rni muhim ekanligini tasdiqlaydi.

4.4. Terrorizmga qarshi kurashda ma’naviyat – bosh mezon

Ma’lumki, insondagi insoniylikni, ya’ni tom ma’noda uning mazmunini ma’naviyat tashkil etadi. Inson qanchalik ma’naviyatli bo‘lsa, bu uning xulqida, ongi shuurida namoyon bo‘lib, o‘zi va atrofdagilarga, hodisa va jarayonlarga munosabatida ifodalanadi.

“Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymone’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”¹.

Shu nuqtai nazardan ma’naviyat insonni surati va siyrati orasidagi muvozanatni ta’minlaydi, deyish mumkin. Shu sababli, insonni ma’naviyatlilik darajasi aynan, uning maqsadi, real e’tiqodi, aqli, orzu umidlari, didi, fahim farosati, o‘ziga va atrofdagilarga, qadriyatlarga bo‘lgan munosabati kabi qator psixologik mezonlar talablari qay darajada mujassamligiga qarab “ma’naviyati yuqori” yoki “ma’naviyati past” toifalarga bo‘lish mumkin. Diniy ekstremizm asosida vujudga kelgan terrorchilikka qarshi kurash O‘zbekistonda samarali mafkuraviy, g‘oyaviy va ma’rifiy kurash asosda olib borilishi bejiz emas. Chunki, terrorchilar muayyan sharoitda ommaning diniy ong saviyasi nisbatan past bo‘lgan ma’lum qismining, xususan, yoshlarning ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatish usulidan ham foydalaniладilar.

Ma’naviyatning yuksalishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan yana bir mezon – muqaddas dinimiz hisoblanadi.

Barchamizga yaxshi ma’lumki, din azaldan inson ma’naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to‘g‘risidagi orzu-armonlarini o‘zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g‘oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir.

Ayniqsa, ko‘p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma’nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analalarimizni bezavol saqlashda muqaddas

¹ Karimov I.A. yuksak manaviyat - engilmas kuch. – Toshkent: “Manaviyat” 2010.– B.19.

dinimiz qudratli omil bo‘lib kelayotganini alohida ta’kidlash joiz. Zero, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o‘ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo‘lgan fazilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otdi va rivojlandi.

Bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish tobora kuchayib, uning xayrixoh va tarafdorlari ko‘payib borayotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sababi muqaddas dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag‘rikengligi, odamzotni doimo ezgulikka chorlashi, hayot sinovlarida o‘zini oqlagan qadriyat va an’analarni ajdodlardan avlodlarga yetkazishdagi beqiyos o‘rni va ahamiyati bilan bog‘liq. Xalqimizning ma’naviyatini shakllantirishga, har qaysi insonning hayotda to‘g‘ri yo‘l tanlashi, umrning mazmunini anglashi, avvalambor, ruhiy poklanish, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashida uning ta’sirini boshqa hech qanday kuch bilan qiyoslab bo‘lmaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, muqaddas islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g‘arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo‘htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodlarga to‘g‘ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g‘oyalarini keng targ‘ib etish vazifasi hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Taassufki, ba’zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g‘arazli maqsadda ularni teng qo‘yish kabi holatlar ham ko‘zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g‘o‘r yoshlarni o‘z tuzog‘iga ilintirib, bosh-ko‘zini aylantirib, ulardan o‘zining nopok maqsadlari yo‘lida foydalanmoqda. Bunday nojo‘ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha’niga dog‘ bo‘lishini, oxir-oqibatda esa ma’naviy hayotimizga salbiy ta’sir ko‘rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur. Muhtaram Prezidentimiz I. Karimov o‘z asarlarida ta’kilaganidek : “Ma’naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o‘z-o‘zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog‘lom avlod kelajagini ta’minlash yo‘lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin”¹.

¹ Karimov I.A. yuksak manaviyat - engilmas kuch. – Toshkent: “Manaviyat” 2010.– B.12.

“Kezi kelganda ilgari aytgan bir fikrimni takrorlamoqchiman: bu dunyoda tabiatda ham, jamiyatda ham bo‘shliq bo‘lmaydi. Qayerdadir bo‘shliq paydo bo‘ldimi, hech shubhasiz, uni albatta kimdir to‘ldirishga harakat qiladi.

Hozirgi kunda kim ko‘p – ana shunday ma’naviy bo‘shliqni to‘ldirishga urinadigan, shuning hisobidan o‘zining g‘arazli maqsadlarini amalga oshirishni o‘ylab yurganlar ko‘p. Ming afsuski, bu kuchlarning asl qiyofasi, maqsad-muddaolari va imkoniyatlarini to‘la va aniq-ravshan tasavvur qilish oson emas. Nega deganda, ular ko‘pincha turli niqoblar, jozibali shior va g‘oyalar pardasi ostida ish ko‘radi. Bunday kuchlarning ixtiyorida juda katta moddiy, moliyaviy resurslar va imkoniyatlar mavjud bo‘lib, ularning puxta o‘ylangan, uzoq va davomli yovuz maqsadlariga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida ana shunday harakatlar natijasida katta ma’naviy yo‘qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin.

Eng yomoni, bunday xurujlarning pirovard oqibati odamni o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurti va xalqidan tonishga, vatanparvarlik tuyg‘ularidan mahrum etishga va hamma narsaga loqayd bo‘lgan shaxsga aylantirishga qaratilganida namoyon bo‘lmoqda. Shuning uchun ham – bu sharq yoki G‘arb mamlakatlari bo‘ladimi, olis Afrika yoki Osiyo qit’asi bo‘ladimi – jahonning qaysi burchagida bo‘lmasin, ma’naviyatga qarshi qandaydir tahdid paydo bo‘ladigan bo‘lsa, o‘zining bugungi kuni va yertangi istiqbolini o‘ylab yashaydigan har bir ongli inson, har bir xalq tashvishga tushishi tabiiy, albatta. Bu haqda gapirganda, faqat bitta millat yoki xalq haqida fikr yuritish masalani o‘ta tor tushunish bo‘lur edi. Ya’ni, bu o‘rinda so‘z faqat bizning ma’naviyatimizga qarshi qaratilgan tajovuzlar haqida, azaliy fazilatlarimiz, milliy qadriyatlarmizni ana shunday hujumlardan asrash xususidagina borayotgani yo‘q. Muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu muammoni keng miqyosda, dunyoning barcha mamlakatlari va xalqlari hayotiga daxldor masala sifatida o‘rganish, tahlil qilish va baholash maqsadga muvofikdir.

Ma’naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e’tiqodidan qat’i nazar, har qaysi odamning tom ma’nodagi yerkin inson bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zda

tutadigan mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o‘layman”¹.

“Agarki masalaga amaliy ko‘z bilan qaraydigan bo‘lsak, ma’naviyatimizga qarshi qaratilgan har qanday xuruj – bu millatimizni millat qiladigan, asrlar, ming yillar davomida ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan o‘ziga xos va o‘ziga mos xususiyatlarga, milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘usiga, bizni doimiy ravishda tadrijiy taraqqiyotga chorlaydigan, shu yo‘ldagi barcha asorat va illatlardan xalos bo‘lib, ozod va farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga katta zarba beradigan mudhish xavf-xatarlarni anglatadi.

Lo‘nda qilib aytadigan bo‘lsak, bunday mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishini, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko‘zlashini, o‘laymanki, yurtimizda yashaydigan sog‘lom fikrli har bir odam yaxshi tushunadi”².

Prezidentimiz I.Karimov 1998 yilda «Tafakkur» jurnalining bosh muharriri savollariga javobida «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin» nomli asarida mafkuraga baho berib, «Mafkura bo‘lmasa odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotishi muqarrar», - deb qayd qiladi.

Mamlakatimizda diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurashda, yoshlarimiz ongiga milliy istiqlol mafkurasini singdirib, uni ma’naviy fazilat darajasiga ko‘tarish natijasida mafkuraviy immunitetni shakllantirish imkonи yaratiladi.

Immunitet tushunchasi, umuman olganda, tibbiy tushuncha bo‘lib, tirik organizmning ichki muayyanligini saqlashga, turli kasallik va infeksiyalardan himoya qilishga qodirligini o‘zida aks ettiradi. Shunga ko‘ra u, birinchidan, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob‘ektiv voqelikni to‘g‘ri aks ettiradigan, Vatan va xalq manfaatiga xizmat qiladigan umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta’minlaydigan bo‘lishi lozim.

Ikkinchidan, millat, jamiyat, davlat, qadriyatlar tizimi mafkuraviy imkoniyatlarini belgilab beradi va qadriyatlar, urf-odatlar mustahkam bo‘lsa, mafkuraviy tajovuzlarga berilmaydigan qalqon bo‘lib hizmat qiladi.

¹Karimov I.A. yuksak manaviyat - engilmas kuch. – Toshkent: “Manaviyat” 2010.– B.13.

²O’sha joyda. – B.14.

Uchinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalardagi millat, jamiyat, davlatning aniq maqsadi bo'lishi kerak va shu maqsadni amalga oshirishda sobitqadamlik va irodali bo'lishi zarur. Shundagina har qanday mafkuraviy tazyiqqa bardosh bera oladi.

Ma'lumki, terrorizmning ommalashuvi tarixida ma'lum darajada insonning muhim ruhiy holatlaridan biri bo'lgan instinktivizmning ham o'rni bor. U insonning ijtimoiy mayli manbai bo'lib, siyosiy maydonda inqilobiy jarayonlar, jamiyatda chuqur o'zgarishlar kechayotgan davrda yuksak emotsiyonal tuyg'ular yuzaga qalqib chiqadi. Ayrim insonlar hissiyotlari aql bilan boshqarilmay qolishi mumkin. Terrorizmning ana shu ijtimoiy-tarixiy va ruhiy shart-sharoitlari bilan uyg'unlikda uning g'oyaviy va mafkuraviy asoslari vujudga keladi. Chunonchi, bolsheviklarning "yalpi tinchlik", "proletariatning kapitalga qarshi" g'oyalari, fashistlarning irqchilik mafkurasi, "musulmon birodalar"ning jamiyatni islomlashtirish g'oyalari singari. Bu kabi holatlar xalqaro terrorizmning g'oyaviy va mafkuraviy ildizlaridan biri bo'lib, ma'lum darajada tushunchalarning yemirilishiga ham xizmat qilishi mumkin: "ozodlik" uchun kurashmoq, "inson huquqlarini" himoya qilmoq, "har bir millatning o'zini o'zi tanib olmoqligini" tarkib etmoq kabi xalqaro deklaratsiyalarda qayd etilgan g'oyalardan foydalanish terrorizmni umumbashariy qadriyatlar "qo'riqchisi"ga aylantiradi, bu hodisani go'yo "ezgulik" sifatida ko'rsatishga xizmat qiladi.

Shunday ekan, hozirgi davrda terrorizmning globallashuviga qarshi samarali kurash olib borish harbiy, siyosiy va iqtisodiy vositalar bilangina emas, balki ma'naviy, mafkuraviy hamda g'oyaviy vositalar bilan ham amalga oshirilmog'i zarur. Masalaga muayyan bir xalqning yoki mafkuraning manfaatlari nuqtai nazaridangina yondashmasdan, balki umuminsoniy manfaatlар hamda umumjahon xavfsizligi mas'uliyati bilan yo'g'rilgan yagona g'oyaviy tamoyillar vositasida kurash olib borish taqozo etiladi.

"Bunday tajovuzkorona harakatlar bizlar uchun mutlaqo begona mafkura va dunyoqarashni avvalo beg'ubor yoshlarimizning qalbi va ongiga singdirishga qaratilgani bilan ayniqsa xatarlidir. Bunday holatlarga duch kelganda, umrida mamlakatimizga qadam qo'yagan, O'zbekistonni hatto xaritadan ham ko'rsatib berolmaydigan, lekin o'zini mutlaq haqiqatning yagona ifodachisi deb hisoblaydigan kimsalarning yengil-

yelpi fikrlarini eshitganda, ularga qarata beixtiyor, e, baraka topkur, oldin yurtimizga bir kelib ko'ring, tariximiz, ma'naviyatimiz, hayot tarzimiz bilan tanishib, undan keyin gapiring, deb aytgingiz keladi,”¹- deb ta'kidlaydi o‘z asarida I.A.Karimov.

Haqiqat va xolislikdan yiroq bo‘lgan, faqat g‘arazli siyosiy manfaatlarni ko‘zlaydigan bunday qarashlar hech kimga naf keltirmaydi va hech kimning obro‘siga obro‘ qo‘shmaydi, albatta.

Agarki biz bunday xatarlarga qarshi o‘z vaqtida qat’iyat va izchillik bilan kurash olib bormasak, turli zararli oqimlar bizning yurtimizga ham shiddat bilan yopirilib kirishi, yoshlarimizni o‘z girdobiga tortib ketishini, oqibatda ularning ota-onas, oila, el-yurt oldidagi burchi va mas’uliyatini o‘ylamaydigan, faqat bir kunlik hayot bilan yashaydigan xudpisand kimsalarga aylanib qolishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Mana shu achchiq haqiqatni yurtimizdagi har bir inson, har qaysi ota-onas, eng muhimi, har qaysi yigit-qiz chuqur anglab olishini istardim.

“Takror aytishga to‘g‘ri keladi, deb davom ettiradi o‘z so‘zini Prezidentimiz – ota-onalar, ustoz-murabbiylar bu masalada hushyorlikni yo‘qotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo bo‘lmasligimiz zarur. O‘ylaymanki, tarixda ko‘p-ko‘p sinov va mashaqqatlarni ko‘rgan, aziz farzandining baxti va kelajagini o‘z hayotining ma’no-mazmuni deb biladigan xalqimiz bunday xatarlarning mash’um oqibatlarini yaxshi anglaydi. “Agarki mendan, hozirgi kunda ma’naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qo‘yish kerak, deb so‘rasa, men avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o‘zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug‘ ajdodlarimizning merosini chuqurroq o‘zlashtirishi, bugungi tez o‘zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrashi va diyormizdagi barcha o‘zgarishlarga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashashi zarur, deb javob bergen bo‘lardim”².

Ishonchimiz komilki, O‘zbekistonda diniy ekstremizm va terrorchilikka qarshi mafkuraviy va g‘oyaviy kurash chora-tadbirlarining kompleks tizimini ishlab chiqishda xalqimizning boy qadriyatlariga tayanish, uni fuqarolarimiz ongi shuuriga singdirish o‘zining ijobiy samarasini berishi muqarrar. Bu borada muhtaram Prezidentimiz Islom

¹ Karimov I.A. yuksak manaviyat - engilmas kuch. – Toshkent: “Manaviyat” 2010. – B.10.

² Karimov I.A. yuksak manaviyat - engilmas kuch. – Toshkent: “Manaviyat” 2010.– B.17.

Karimov tomonidan ishlab chiqilgan: “G‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat” tamoyili Terrorizmga qarshi mafkuraviy kurashda muhim ahamiyat kasb etadi va bu yo‘nalishda ishlab chiqilgan chora tadbirlarni amalda qo‘llashda ular asarlarida ko‘rsatilgan metodolik, nazariy va amaliy xulosalarning hissasi beqiyos.

Darhaqiqat, Terrorizm balosi orqali begunoh insonlarga jafo qilayotgan yovuz kuchlarning yertami kech jazo topishi muqarrrar. Nainki ulug‘ donishmandlar aytganidek, bu dunyoning ham, oxiratning ham darvozasi bor. Shu o‘rinda ulug‘ Vatandoshimiz shoh Boburning quyidagi shohona misralarini keltirib o‘tish joiz :

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlik hargiz,
Har kimki yomon bo‘lsa jazo topqusidir.

XULOSA

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan: "G‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat" tamoyili terrorizmga qarshi ma’naviy va mafkuraviy kurashning o‘ziga xos shakl hamda vositalarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bunday choratadbirlarni ishlab chiqish va amalda qo‘llashda Prezident asarlarida ko‘rsatilgan metodologik, nazariy va amaliy jihatlar asosida quyidagi umumiylar xulosalarni keltirish o‘rinli :

- Mustaqil O‘zbekistonda voyaga yetayotgan har bir yoshni diniy ekstremistik va terrorchilik g‘oyalarga qarshi kurashda va ularni g‘oyaviy himoyalashda ma’naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun, milliy g‘oya bilan quollangan kuchli mafkuraviy immunitetga ega shaxs sifatida tarbiyalash ozod va obod Vatan, yerkin va farovon hayot barpo etish hamda uni himoya qilishning asosiy shart-sharoitlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.
- Prezident I.Karimov Oliy Majlis Qonunchiligi palatasining 2005 yil 27 yanvardagi 1-yig‘ilishida: «Parlament – jamiyat hayotining ko‘zgusi» nomli nutqida ta’kidlaganidek, mamlakatimizda hokimiyat tarmoqlarini va xalq ommasini «birlashtiradigan narsa bu - milliy g‘oya. Bizning milliy g‘oyamiz esa yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi kabi yuksak tushunchalarni o‘z ichiga olar ekan, bu borada hamjihat bo‘lib, har bir kishi har qanday ekstremistik va bizga yot g‘oyalarga qarshi kurashmog‘i lozim.
- Terrorizm faqat muayyan shaxslar, jamiyatdagi muayyan guruhlar, hatto, ayrim mamlakatlar uchungina moddiy va ma’naviy ofat bo‘libgina qolmasdan, balki hozirgi davrda butun jamiyat, barcha mamlakatlar uchun ham katta falokatga aylanish yoqasida. Buni hozirgi davrda dunyoning turli chekkalarida xilma-xil ko‘rinishda yuz berayotgan terrorchilik jarayonlari isbot qilib turibdi.
- Terrorizm vujudga kelishining tarixiy sharoitlari va ijtimoiy-g‘oyaviy ildizlarining tahlili shundan dalolat beradiki, u o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalari jihatidan ham, qo‘llagan kurash vositalari jihatidan ham, g‘oyaviy da’volari jihatidan ham insoniyat uchun katta ijtimoiy xavfga aylanish imkoniyatiga ega bo‘lgan unsurdir.

- XX asrning so‘nggi yillarida xalqaro terrorchilikning diniy fundamentalizm va ekstremizm bilan (qaysi dinka taalluqli bo‘lishidan qat’iy nazar) birlashishi, o‘z g‘oyaviy va mafkuraviy da’volarini ular asosida ommaga singdirishga harakat qilishi, uni yanada kengroq ko‘lamda tarqalishi nafaqat jismoniy va moddiy jihatdan, balki ma’naviy va ruhiy jihatdan ham fojiali rivojlanishi ro‘y bermoqda.
- Xalqaro terrorchilikka qarshi kurash, eng avvalo, ko‘p jihatdan diniy mutaassiblik va fundamentalizmga qarshi samarali kurash bilan bog‘liq, chunki diniy mutaassiblik, fundamentalizm, ekstremizm va terrorchilik o‘z tarixiy-ijtimoiy kelib chiqishi, ko‘p jihatlari bilan umumiy bir zanjirning halqalaridir. Diniy fundamentalizm va ekstremizm mavjud ekan, terrorchilik xavfi hamma vaqt saqlanib qoladi.
- Ko‘p millatli davlatlarda odilona milliy siyosat olib borilishi millatchilik terrorchiligining oldini olishda eng muhim omillardan biri sanaladi. Bunga mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyingi yillarda Prezidentimiz I.Karimov boshchiligidagi O‘zbekiston hukumati olib borayotgan odilona milliy siyosat tufayli millatchilik assosida kelib chiquvchi terrorchilik zamini tugatilganiga hamda mustahkam ijtimoiy-siyosiy barqarorlik o‘rnatalganligiga ishonch hosil qilish mumkin.
- So‘nggi yillarda jahonning turli mamlakatlarida, shu jumladan O‘zbekistonda ham islam dini niqobi ostida sodir etilgan turli ko‘rinishdagi terrorchilik xurujlarining siyosiy, g‘oyaviy va mafkuraviy mohiyatini tahlil qilishda ayniqsa, xorijiy mualliflar tadqiqotlarida qo‘llanilgan "islom terrorchiligi" atamasi ham mantiqiy jihatdan, ham islam dinining insonparvarlik mohiyati jihatidan asossizdir.
- Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy hayotida muhim o‘rinni egallovchi diniy qadriyatlar – diniy mutaassiblik, ekstremizm va terrorchilikka zid bo‘lib, diniy bag‘rikenglik va murasasozlikni, xalqlararo totuvlik va hamjihatlikni, dinlararo ishonch va o‘zaro hurmat-ehtiromni targ‘ib qiluvchi g‘oyalarga boy bo‘lgan. Ushbu g‘oyalarning falsafiy va ijtimoiy-ma’naviy masalalari Markaziy Osiyodan etishib chiqqan buyuk mutafakkirlar va mutasavviflarning asarlarida o‘z ifodasini topgan.
- Diniy, milliy hamda ijtimoiy adovat, zo‘ravonlik, nizo va urushlarga qarshi qaratilgan xalqlararo do‘slik va hamjihatlik, dinlararo murasasozlik g‘oyalaring g‘oyaviy masalalari, Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Bobur kabi

buyuk alloma va mutafakkirlar asarlaridagi turli irq, millat va dinga mansub xalklar o‘zaro do‘stlik, hamjihatlik, hamkorlik munosabatlarida yashaganliklari haqida ishonchli tarixiy ma’lumotlar yetarlicha mavjud.

- O‘zbekistonda islom niqobi ostida sodir etilgan terrorchilik harakatlari mohiyatining tahlili shundan dalolat beradiki, unga qarshi kurash vositalari faqat huquqiy, ma’muriy va harbiy chora-tadbirlar bilangina cheklanib qolmasdan, balki mafkuraviy, g‘oyaviy va ma’naviy kurash vositalarining mukammal tizimini ham ishlab chiqishdan iborat bo‘lishi zarur.

- Xalqaro terrorizmga qarshi izchil kurash olib borish mamlakatimiz tashqi va ichki siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xalqaro terrorchilikka qarshi hamkorlikda kurash olib borishning amaliy masalalari bo‘yicha ham, turli xalqaro tashkilotlar minbarlaridan turib, O‘zbekiston hukumatining qator takliflari bilan chiqdi. Muammoga bunday yondashuv O‘zbekistonning terrorchilikka karshi xalqaro hamjamiyat bilan hamkorliqda kurash olib borishga tayyor ekanligidan va bu borada uning munosib o‘rni borligidan dalolat beradi.

- O‘zbekistonda xalqaro terrorchilikka qarshi olib borilayotgan siyosiy, ma’muriy va huquqiy kurash O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro huquq tamoyillariga izchil rioya qiluvchi huquqiy asosga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.
2. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lida. 4- tom. – Toshkent. O‘zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1- tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.
7. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.:O‘zbekiston. 1997.
8. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
9. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.
10. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, yerkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000.
11. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. 9-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001.
12. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
13. Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko’tarilish sari 18-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
14. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. 12-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2004.

15. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modyernizatsiya va isloh qilishdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
16. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009.
17. Karimov I.A. yuksak manaviyat - engilmas kuch. – Toshkent: “Manaviyat” 2010.
18. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish - eng oliv saodatdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
19. “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to‘plami. – Toshkent, 2004, 25- son.
20. Nigmatov I., Tojiev M. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya – 2011, 260 b.
21. Tojiev M., Nigmatov I. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Tafakkur-bo‘stoni – 2012, 271 b.
22. Nigmatov I. Mintaqqa barqarorligi – taraqqiyot kafolati (yoxud uni ta’minlashda O‘zbekistonning tashabbuskorligi xususida). // Ma’rifat, 2011, 3 sentyabr 71-Son.
23. Safarova N. – “Terrorizm” (tarixiy-falsafiy tahlil). – Toshkent: Noshir- 2009. 216 b.
24. Abu Nasr Forobi. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. -T.: yozuvchi, 2001.
25. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1 tom. – Toshkent: Fan, 1968.
26. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. II tom. – Toshkent: Fan, 1965.
27. Jaloliddin Rumi. Ma’naviy - masnaviy. Birinchi kitob. Forsiyidan Jamol Kamol tarjimasi. – Toshkent: Xalq merosi, 2001.
28. Burhoniddin Marg‘inoniy. Hidoya. I jild. – Toshkent: Adolat, 2002.
29. Ибн Сина. Избранные философские произведения. – Москва: Наука, 1980.

30. Abdullajonov O. Diniy aqidaparastlikning kelib chiqishi, mohiyati va O‘zbekistonga kirib kelishi. – Toshkent: Akademiya, 2000.
31. Begmatov A. Aqidaparastlik manbalari // Islom: bag‘rikenglik va mutaassiblik. – Toshkent: Univyersitet, 1998;
32. Gafurov Z., Tohirov F. Terrorizm va diniy ekstremizmning ijtimoiy xavfliligi. – Toshkent: 2004.
33. Jo‘raev N. Xalqaro Terrorizm va mintaqaviy mojarolar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
34. Zakurlaev A. G‘oyalar kurashi. - Toshkent: Movarounnahr, 2000.
35. Komilov N. Islom - ma’rifatdir. Ogoh bo‘laylik. – Toshkent: Akademiya, 1999.
36. Paxrutdinov SH. Taxdid - halokatli kuch. – Toshkent: Akademiya, 2001.
37. Rajabova M.A. Diniy ekstremizm va terrorchilikka qarshi kurash muammolari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003.
38. Ubaydullaev U. Xalqaro Terrorizm: tarixi va zamonaviy muammolari. – Toshkent: Univyersitet, 2002.
39. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
40. Fayziev S., Normatov K. Terrorizm va yoshlар: muammo, echimlar. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2007.
41. Falsafa. Qomusiy lug‘at. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. Sharq-2004
42. Xalqimizning hamjihatligi terrorizmga qarshi kafolat /Tuzuvchi Saifnazarov I.). – Toshkent: yangi asr avlodи, 2004.
43. Qirg‘izboev M. Terrorizm va ekstremizm: asosiy tushunchalar va yo‘nalishlari. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino, 2001.
44. G‘arb falsafasi // Q. Nazarov tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2004.
45. G‘oyibnazarov SH. Xalqaro terrorizm: ildizlari, omillari va manbalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009.
46. Yangi va eng yangi davr G‘arbiy Yevropa falsafasi. / S.Yo‘ldoshev va b./ – Toshkent: Sharq, 2002.

47. Артамонов И.И. Терроризм: способы предотвращения. Методика расследования. 2-е издание. – Москва, 2002.
48. Требин М.П. Терроризм в XXI веке. – Минск: Харвест, 2004.
49. Paxruddinov SH. Taraqqiyotga tahdid: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Akademiya, 2006.
50. Jumaev R.Z. Xalqaro terrorchilik - vayronkorlik manbai / Xalq so‘zi/, 2000 yil, 20 sentyabr.
51. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To‘ldirilgan nashr / Mas’ul muharrir shayx Abdulaziz Mansur/. – Toshkent: sharq, 2014.
52. Tulepov A. ISHID fitnasi. Ijtimoiy-diniy-ma’rifiy nashr. “Movarounnahri” -2015
53. Yusupov E. Islomiq qadriyatlar va diniy ekstremizm. – Toshkent, 1999.
54. Альмееев Р., Косимов Ф. В плену иллюзий. – Ташкент: Издательство литературы и искусства им. Г. Гуляма, 2004.
55. Diniy ekstremizm va terrorizmga karshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari: O‘quv qo‘llanma / O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi Toshkent islam universiteti /, 2013.
56. Sharipov A. Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash g’oyalari// Falsafa va Huquq. 2005 №1
57. Ислам. Энциклопедическая словарь. – Москва: Наука. 1991.
58. Usmonov M. Burhoniddin Marg’inoniyning “Xidoyat” asarida diniy bag’rikenglikning ayrim masalalari // Ma’rifat. 2003 yil, 19-iyul.
59. Boltayev M. Abu Ali ibn Sinoning falsafiy-ijtimoiy ta’limoti. – Buxoro, 2001
60. Uz.Wikipediya.org
61. Www.mfa.uz

ISIOMJON NIGMATOV

**TERRORIZMNING OLDINI OLİSH VA UNGA QARSHI KURASHDAGI
XAVFSIZLIK SIYOSATIDA O'ZBEKİSTONNING TUTGAN O'RNI**

Monografiya

Muharrir M. Botirbekova

Tex. Muharrir Sh. Sangirova

Bosishga ruxsat etildi 10.12. 2015 y. Bichimi 60x84 1/16
Shartli bosma tabog'i 4,8. Nusxasi 50 dona. Buyurma № 563

TDTU bosmaxonasida chop etildi. Toshkent sh.
Talabalar ko'chasi 54

